O'ZBEKISTON RESUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
MEHNAT TA'LIMI KAFEDRASI
151-Mehnat ta'limi guruhi talabasi
Matkarimov Azamat Farhod o'g'lining
5112100-Mehnat ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu:" O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashda axborot texnalogiyalaridan foydalanish metodikasi"

Ilmiy rahbar: p.f.n. X.R.Matyoqubov

Urganch- 2019 yil

**Urganch davlat universiteti**

**Pedagogika fakulteti**

**Mehnat ta'limi kafedrasi**

**Bitiruv malakaviy ishni bajarish bo'yicha**

**TOPSHIRIQLAR REJASI:**

1. Talaba **Matkarimov Azamat Farhod o'g'li**ga universitet rektorining «125-T &3»- sonli buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **"O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashda axborot texnalogiyalaridan foydalanish metodikasi"** mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan p.f.n Matyoqubov X.R. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:

*a) mavzu mazmunini ochib beruvchi ko'rgazmali vositalar;*

*b) mavzuning elektron va bosma shaklda tayyorlangan matni*

*Kirish*

*I-BOB. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish muammolarining psixologik-pedagogik asoslari*

*II-BOB.O'quvchilarning kasb-hunar tanlashda qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg'unlashtirishning metodik asoslari*

*Xulosa*

*Adabiyotlar ro'yxati*

*Ilovalar*

4. **Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar:** *Bitiruv malakaviy ish ikki qism: nazariy va amaliy qismlardan iborat. Nazariy qismning tarkibiy tuzilmasi yuqorida ko'rsatilgan bo'lib, matn elektron variantda 15592 so'z atrofida bo'ladi. Dastlabki bosqichda quyidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya qilindi:*


1. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. –Toshkent: O'qituvchi, 1969.

2. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta`limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari. –Toshkent, TDPU. 1993.

3. Avazboev O.I. Kasb ta`limi metodikasidan amaliy mashg`ulotlar. Metodik

qo'llanma. –Toshkent: TDPU, 2007 y.
4. Boltaboev S.A, Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta`limi metodikasidan amaliy mashg`ulotlar (Metodik qo'llanma). –Toshkent, TDPU, 2002.
5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –Toshkent: Mehnat, 1991.
6.Bulatov S.S. Ganch O'ymakorligi. O'quv dasturi.–Toshkent:O'qituvchi, 1989.
7. Davlatov K. Mehnat va kasb ta`limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Davlatov K. Mehnat va kasb ta`limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg`ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. –Toshkent:O'qituvchi, 1995.
*Ishni bajarish jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati to'ldirib boriladi.*

**5. Bitiruv malakaviy ishga** mavzu mazmunini ochib beruvchi ko‘rgazmali vositalarning eskizlari, tajriba-sinov ishlari uchun tayyorlangan turli tarqatma va boshqa shakllardagi materiallar ilova qilinadi.

**Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali**

| *№* | *Bajarilgan ishning mazmuni* | *Bajarish muddati* |
|---|---|---|
| 1 | Mavzuni kafedrada tasdiqlash. | 27.08.2018 |
| 2 | Bitiruv malakaviy ishi topshirig‘i mazmuni va hajmini aniqlash. | 10.09.2018 |
| 3 | Maxsus adabiyotlarni o‘rganish, bitiruv malakaviy ish bo‘yicha psixologik-pedagogik, metodik va amaliy materiallari yig‘ilishi. | 15.10.2018 |
| 4 | Bitiruv malakaviy ish bo‘yicha tajriba mazmuni, hajmi va tartibini aniqlashtirish. | 14.01.2019 |
| 5 | Tajriba ish (o‘qish)larni tashkil qilish va o‘tkazish sifati (maktab) | 18.02.2019 |
| 6 | Tajriba natijalarini umumlashtirish va taxlil qilish. | 11.03.2019 |
| 7 | Bitiruv malakaviy ishining dastlabki materialarini tasdiqlash. | 26.03.2019 |
| 8 | Materiallarni to‘la tasdiqlash va bitiruv malakaviy ishini nazariy va amaliy qismlari mazmunini tasdiqlash. | 8.04.2019 |
| 9 | Bitiruv malakaviy ishini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi. | 23.04.2019 |
| 10 | Rahbar tomonidan tugallangan ishni ko‘rikdan o‘tkazish. | 20.05.2019 |
| 11 | Tugallangan bitiruv malakaviy ishni rahbar xulosasi va uni himoyaga tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish. | 24.05.2019 |

Bitiruv malakaviy ish rahbari: p.f.n Matyoqubov X.R

Bajaruvchi talaba: Matkarimov A.F

2018 yil «_____» ________________

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2018 yilda tasdiqlandi («______» - sonli bayonnoma).

Kafedra mudiri: prof. Ro`ziyev E.I

**Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari**

| № | Baholanadigan bo‘limlar | Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida |
|---|---|---|
| 1 | BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 5 |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi | 25 |
| 3 | Amaliy qism mazmuning tanlangan mavzuga mosligi. Ishning mahoratli bajarilishi | 20 |
| 4 | “Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 5 |
| 5 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 |
| 6 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 |
| 7 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 |
| 8 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 |
| 9 | BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi | 10 |

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti “Mehnat ta’limi” bakalavriat yo‘nalishining bitiruvchisi **Matkarimov Azamat Farhod o’g’li**ning **“O’quvchilarni kasb-hunarga yo’llashda axborot texnalogiyalaridan foydalanish metodikasi”** mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning 2019 yil “28” “06” dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestattsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

| T/№ | Baholanadigan bo‘limlar | Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida | Komissiya belgilagan foiz |
|---|---|---|---|
| 1 | BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 5 | 5 |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi | 25 | 23 |
| 3 | Amaliy qism mazmuning tanlangan mavzuga mosligi. Ishning mahoratli bajarilishi | 20 | 18 |
| 4 | “Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 5 | 4 |
| 5 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 | 8 |
| 6 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 | 8 |
| 7 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 | 5 |
| 8 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 | 7 |
| 9 | BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi | 10 | 10 |
| Jami: | | 100 | 88 |

Davlat attestattsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. **A.F.Matkarimovning “O’quvchilarni kasb-hunarga yo’llashda axborot texnalogiyalaridan foydalanish metodikasi”** mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 88 lik o‘zlashtirish ko‘rsatkichi belgilansin va “a’lo” deb baholansin.

2. ______________________________________________

DAK raisi: ______________________

A’zolari: ______________________

______________________

2019 yil “______” ____________

Urganch davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

“Mehnat ta’limi” kafedrasi

Bitiruv malakaviy ish ____5____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: **Matkarimov A.F**

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: **“O’quvchilarni kasb-hunarga yo’llashda axborot texnalogiyalaridan foydalanish metodikasi”**

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: p.f.n **Matyoqubov X.R**

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2019 yil “_28_”___06___da o‘tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Shovot tumani “Shovot qal’a maishiy xizmat” KXK o’qituvchisi Abdullaeva Shakarjon Ro’zmetovna

Kafedra mudiri: prof. Ro`ziyev E.I.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo‘yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani: dots. Yarmetov J.R

Urganch davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

“Mehnat ta’limi” kafedrasi

“Mehnat ta’limi” bakalavriat yo‘nalishi

“Tasdiqlayman”
Pedagogika fakulteti dekani
_______________dots.Yarmetov J.R
“_5_” ___11_____2019y.

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA TOPSHIRIQ**

Talaba **Matkarimov Azamat Farhod o’g’li**

**1. Ishning mavzusi “O’quvchilarni kasb-hunarga yo’llashda axborot texnalogiyalaridan foydalanish metodikasi”**

2.11.2018 yil universitet rektorining 125-T&3 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**2. Ishni topshirish muddati:** “_24_”____05_____2019 y.

**3. Mavzu bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro‘yxati**


1. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1969.
2. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta`limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari. –Toshkent, TDPU. 1993.
3. Avazboev O.I. Kasb ta`limi metodikasidan amaliy mashg`ulotlar. Metodik qo’llanma. –Toshkent: TDPU, 2007 y.
4. Boltaboev S.A, Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta`limi metodikasidan amaliy mashg`ulotlar (Metodik qo’llanma). –Toshkent, TDPU, 2002.
5. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –Toshkent: Mehnat, 1991.
6.Bulatov S.S. Ganch O‘ymakorligi. O‘quv dasturi.–Toshkent:O‘qituvchi, 1989.
7. Davlatov K. Mehnat va kasb ta`limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. –Toshkent: O’qituvchi, 1992.
8. Davlatov K. Mehnat va kasb ta`limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg`ulotlar: Pedagogika instituti o’quvchilari uchun qo’llanma. –Toshkent:O’qituvchi, 1995.


**4. Ishning maqsadi:** O‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish orqali kasb-hunar tanlash samaradorligini oshirish.

**5. Amaliy qism materiallari ro'yxati:**

a) o`quvchilarga o`rgatiladigan kasb-hunarga yo'llashga oid taqdimotlar tayyorlash, tajriba sinov ishlarini bajarish va tahlil qilish uchun test materiallari anketa so'rovlari, to'garaklar tashkil etish ish ob'ektlari tanlash, texnologik xaritalar tuzish va dars ishlamalari ishlash;

b) bitiruv malakaviy ish mavzusi bo`yicha taqdimot.

**6. Maslahatchilar:** p.f.n Radjabov R. F.

| Bo'limlar | Maslahatchi F.I.SH. | Imzo, sana | |
|---|---|---|---|
| | | Topshiriq berdi | Topshiriq qabul qildi |
| Amaliy qism | Radjabov R. F. | | |

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni:

Shovot tumani "Shovot qal'a maishiy xizmat" KXK o'qituvchisi Abdullaeva Shakarjon Ro'zmetovna

Ilmiy rahbar: **p.f.n Matyoqubov H. R**

BMI bajaruvchi talaba: **Matkarimov A.F**

Kafedra mudiri: **prof. Ro`ziyev E.I**

## MUNDARIJA

**Kirish…………………………………………………………….............3**

**IBOB. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish muammolarining psixologik-pedagogik asoslari…………………………………………………7**

1.1Kasbiy ta’limning tashkiliy-metodologik muommolari xususida.

1.2§.Ta’lim tizimida kasb-hunarga yo‘llash jarayoni tadqiqot obyekti sifatida……………………………………………………………...................11

1.3§.O‘quvchilarning erkin kasb-hunar tanlash muammosi va yechimlari………………………………………………………………………25

1.4&Kasb ta’limi o’qituvchilarining axborot texnologiyalari bo’yicha tayyorgarligini oshirishning pedagogik tamoyillari………………………………32

**II BOB. O‘quvchilarning kasb-hunar tanlashda qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirishning metodik asoslari…………………………40**

2.1§.O‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklariningkasb-hunar tanlashdagi ahamiyati…………..........……………………………….........40

2.2§.O‘quvchilarning kasb-hunar tanlashda qiziqish,qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish usullari...........................................................

2.3.O’quvchilarni kasbga tayyorlashda kompyuterli o’yinlardan foydalanish metodikasi……………………………………………………………………61

2.4§. Mehnat ta’limi jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanish asosida pedagogik texnologiya metodlarini qo‘llash……………………………...68

**III BOB. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va uning tahlili.**

3.1§. Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish……………………**...................75**

3.2§.Tajribasinovishlariningtahlili…………………….........................80

**UMUMIY XULOSALAR** ......................................................................87

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**..............................89

**ILOVALAR** ........................................................................................91

# KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi:** Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi o'quvchi shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlashning yangi qirralari ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu boradagi milliy ta'lim modelimizning asosiy g'oyasi va mazmuni «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini o'z ichiga olgan 3-moddasida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi»[9] [1] qayd etilganligi o'quvchi shaxsi, imkoniyat va ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratilganligining tasdig'idir.

O'quvchi shaxsining kasbiy bilim olishdagi yo'nalishni ixtiyoriy tanlashi uchun sharoit yaratishda, avvalo, uni erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish muammosi hal etilishi lozim bo'ladi.

Jahon pedagogika nazariyasida erkin fikrlovchi, mustaqil shaxsni shakllantirishning umumiy asoslari keng miqiyosda tadqiq qilingan va ko'plab natijalar qo'lga kiritilgan. Biroq, bunday tadqiqotlarning aksariyat qismi muammoning umumiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti talablariga to'la javob bera olmaydi. Ushbu g'oya asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ulug'lanib, rivojlantirib kelingan. Jumladan, Forobiy bu haqda quyidagi ibratli fikrlarni ilgari suradi: «Inson biron-bir kasbni egallashi uchun faqat tug'ma qobiliyati kifoya emas, kasb-hunarda kamolotga ham erishishi kerak. Kamolot insondan hunarning biron-bir sohasini egallash bilan qanoatlanib qolmay, balki hunarni to'liq o'zlashtirishni talab etadi. Tabib faqat davolash bilangina shug'ullanib qolmasdan, tibbiyotga oid hamma ishlar bilan qiziqishi kerak».

---

[1]O'zbeknstonRespublikasining "Ta'limto'g'risida" Qonuni, Barkamolavlod – O'zbekistontaraqqiyotiningpoydevori. – T.: "SHarq", 1997 y. 296 B. 20-bet.

Kaykovus «Qobusnoma» asarida kasb-hunarni ulug‘lab «Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf’ yetkurmas. Bilursanki, xori mug‘ilonning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug‘ilon yanglig‘ na o‘ziga va na o‘zgaga foyda berur. Barcha donish va hunarning sarmoyasi: adab, tavoze, hayo, pokdillik, parhezkorlik, beozorlik, sabr va matonatliqdur» deydi.

Biroq, yuqoridagi amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarning kasb tanlashi jarayonida amaliy va nazariy yo‘naltirilgan bilimlarning nisbati, bu bilimlarda qiziqish, qobiliyat va mayilliklarning uyg‘unlashtirilishi alohida muammo sifatida qaralgan emas.

Tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligi yana shundan iboratki, Milliy dasturni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida majburiy umumtalim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek, o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirilgan ta’limga o‘tishni to‘liq amalga oshirish vazifasi belgilab berilgan. Ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirib, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirish ko‘zda tutilgan. Biroq ushbu vazifalarni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mazkur yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunar tanlashga yo‘llash ishlarini amalga oshirishning maxsus metodlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarda umumta’lim jarayonida o‘quvchilarni mehnat talimi mashg‘ulotlarida kasbiy tayyorgarligini ilmiy asoslash muammosi o‘z yechimini yetarli darajada topmaganligini e’tiborga olib, biz tadqiqotimiz mavzusini «O‘quvchilarni kasbga yo‘llashda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi» deb nomladik.

**Tadqiqot obyekti:** umumta’lim maktablari VIII-IX sinf o‘quvchilarini mehnat ta’limi darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish mazmuni.

**Tadqiqot maqsadi:** O‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish orqali kasb-hunar tanlash samaradorligini oshirish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

1. Umumta’lim maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda qiziqish, qobiliyat va moyilliklarning o‘rnini aniqlash.

2. O‘quvchilarning kasb-hunar tanlashida qiziqish, qobiliyat va moyilliklarni uyg‘unlashtirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslash.

3. Umumta’lim maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda qiziqish, qobiliyat moyilliklarini uyg‘unlashtirishning mazmuni va usullarini ilmiy jihatdan asoslash.

4. Umumta’lim maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish usullari hamda ularning samaradorlik darajasini aniqlash.

5. Tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil etish, umumlashtirish hamda umumlashtirilgan natijalarni matematik-statistik metod yordamida qayta ishlash asosida ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

## IBOB. O‘QUVCHILARNI KASB-HUNAR TANLASHGA YO‘NALTIRISH MUAMMOLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Uzluksiz ta’lim tizimining asosiy tashkiliy-metodologik muommolaridan biri yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb-hunarga tog’ri yo’naltirishdir.Maktab o’quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirish masalalarining dolzarblashuvi ularning mustaqil Erkin ongli va ososli ravishda kasb-hunar tanlashlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratish zaruriyati bilan izohlanadi.Kasb-hunarga yo’naltirish jarayoniilmiy yondashilgan holda shaxsning Yoshi, jinsi, psixologik va fiziologik imkoniyatlarini inobatga olish asosida amalga oshiriladi.Shunday ekan, xar bir kasb yoki hunar o’ziga xos bo’lgan ma’lum jihatlarga ega bo’ladi.Ularning asosiy jihatlariga ko’ra umumiy ravishda jismoniy hamda aqliy imkoniyatlar asosida yo’lga qo’yiluvchi kasb-hunarlar sifatida guruxlanadi . Shu o’rinda takidlash joizki yoshlarning ongli va asosli ravishda kasb-hunar tanlashi – bu nafaqat aniq bir kasbni tanlash, balki u ijtimoiy ahamoyatga ega bo’lgan inson hayotining mazmun- mohiyati sifatida ham alohida o’rin tutadi. Bunda uning kasb tanlashi orqali hayot yo’li ham aniqlanadi.Insonning ayni vaqtdagi turmush tarzi, oilasi, do’stlari, kelajakdagi taqdiri, orzu-havasi, qo’ying-ki, butun borliq faoliyati uning tanlagan kasbi bilan bog’liqdir.To’g’ri tanlangan kasb bolaning o’zi uchun ham, uni ota-onasi uchun ham davlatimiz uchun ham manfaat keltiradi.

Aksariyat zamondoshlar kasb va hunar atamalarini sinonim tarzda idrok etadilar. Afsuski, aslida ushbu tushunchalarning  farq qiladigan jihatlari mavjud, albatta.

Ma’lumki, kasb egasi bo’lish uchun ma’lum muddatli ta’lim tarbiya jarayonlarida ishtirok etish, yakuniy davlat attestatsiyadan o’tish hamda o’rnatilgan va qabul qilingan shakl hamda andozadagi rasmiy hujjatlarni qo’lga kiritish lozimdir.Vrach, injener, o’qituvchi,arxitektor,jurnalist,agranom, uchuvchi,geolog,iqtisodchi, astranom, zootexnik, kabi kasb egalarining salohiyati nazariy va amaliy tayyorgarligi kasbiy mahorat hamda mashaqqatli mehnat bilan belgilanishini

bilamiz.Hunar egallash uchun esa oddiy qiziquvchanlik va uquv hamda malaka talab etiladi.Bunda “ustoz-shogird” an’alariga sodiqlik alohida ahamiyatga molikdir.Tarixga murojaat qiladigan bo’lsak, azaldan xalqimiz jamoa-jamoa bo’lib, keyin mahallada yashab, o’z o’rniga ega bo’lgan.Xar bir mahallaning kulolchilik,pichoqchilik,misgarlik, novvoychilik,zargarlik,do’ppichilik,temirchilik ,kabi o’z nomlari bo’lib, ushbu kasb hunarlari bilan ro’zg’or tebratib oilalarini boqishgan va mehnatga layoqatsiz keksayu-qariyalarga g’amhorlik qilishib, mehr-muruvvat ko’rsatishgan.Qo’li gul sartarosh, mohir duradgor el duosini olgan oshpaz, hunarini san’at darajasiga ko’tara olgan beshiksoz, o’z ishining sirini simirgan tunikachi kabi hunarmandlar ularga ixlos bilan tashrif buyurgan yoshlarga o’z hunarini miridan sirigacha o’rgatadilar va chin ko’ngildan oq fotiha berishib mustaqil “uchirma” qilishadi. Lekin, san’at, badiiy adabiyot, sport kabi ayrim sohalarda esa kasb hunar tushinchalari o’rtasiga “Buyuk Xitoy devori” ni o’rnatish shart emas.Insoniyatning uzoq va mashaqqatli tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch –bunyodkorlik va buzg`unchilik g`oyalari hamisha kurashadi. Bunyodkorlik g`oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlari bilan ajralib turadi. Milliy mafkuramizning bosh g`oyasi :”ozod va obod Vatan,erkin va faravon hayot barpo etish “dan iboratdir.Uning asosiy g`oyalaridan sanalgan vatan ravnaqi , xalq faravonligi bevosita ushbu jamiyatning a`zosi odam zotning kasb-kori va mehnat faoliyati bilan chambarchas bog`liqdir. Bu xususda yanada aniqroq ifodalash maqsadida taniqli olim ,professor X.Omonov “ Dehqon yerga ishlov bermasa , urug` sepmasa, xirmon ko`tarmasa, chorvador go`sht-yog`, sut , jun yetishtirmasa, pillachi ipak bermasa, konchi ma`dan qazimasa, quruvchi qurmasa, rassom cgizmasa, shoir yoki yozuvchi adabiy-badiiy asar yaratmasa, olim ixtiro va kashfiyot qilmasa, xullas, hechkim jon chekib “ igna bilan quduq qazimasa” jamiyat inqirozga uchrashi va ochlikdan halok bo`lishi muqarrar-ku, axr !”-deb yozadi.

Shubois, insonkamolotimasalasidayoshlarnikasb-hunargayo’naltirishningijtimoiy-psixologikjihatlarigae’tiborniqaratganholdamavjudvaidealholatiorasidagitafovutlar

nibelgilabolamiz.O’quvchilaro’rtasidakasbiylayoqatga, qobiliyatga, iqtidorga, iste’dodga,egabo’lganyoshlarnitopib, tarbiyalashhamdakamolotgayetkazishpedagogicpsixologikshart-sharoitlaryaratishzaruriyatibilanizohlanadi.Bugungijadalrivojlanayotganzamondabolaningiste’dodzaxirasigamansubxarakterbelgilarinibarvaqtaniqlashmumkinligivazarurligihamdabuxususiyatlarqaydarajadabolalardatarkibtopishi, asosan, ota-onalarvatarbiyachilargabog’liqdir.

Ta’lim-tarbiyada iqtidorli bolalarni aniqlab, kasbga yo’naltirish amaliy ishlari qancha erta boshlansa, uning samarasi shuncha erta namoyon bo’ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta’sir qiladi.Iqtidorli o’quvchilar o’ziga xoslikka ega bo’lib, ularga har doim ta’limiy standart talablari to’g’ri kelavermaydi.

Iqtidorli bolalarga xos bo’lgan xususiyatlar sirasiga qiziquvchanlik, bilishga ehtiyoj, bitmas tuganmas kuch quvvat va mustaqillikni kiritish mumkin.

O’quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda bir qadar to’sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud:kasbiy layoqat, qiziqishlar va moyilliklarni aniqlovchi psixologik testlardan foydalanish natijalarining sustligi; yil sayin yangi texnalogiyalar paydo bo’lishi va kasblarning ko’payishi, ammo bundan aksariyat o’quvchilarning xabardor emasligi; bolalarning kasbiy tanloviga oila, undagi an’analar, turmush tarzi, kattalar bilan kechadigan emotsional munosabatlarning xarakteri, ota-onaning ma’lumot darajasi va ularning mutaxassissligi bilvosita ta’sir ko’rsatadi, lekin ko’pchilik oilalarning loqayd va beparvoligi; fan to’garaklarning nomigagina ishlashi; fan olimpiadalari, ilmiy- amaliy konferensiyalarga bosqichma- bosqich tayyorgarlikning talab darajasida emasligi;  “Mahorat maktablari” ning faoliyati samarali yo’lga qo’yilmaganligi; bilimlar bellashuvining viloyat va Respublika bosqichi ntijalariga ko’ra o’quvchilar bilimidagi bo’shliqlar bilan ishlanilmayotganligi kabilar.

Mustaqil fikrning to'laqonli ifodalanishi uchun qiziqish, intiluvchanlik, mustaqil fikr, bilimdonlik, topqirlik, hozirjavoblik, tashabbuskorlik, faollik, aniq maqsadni ko'zlash vazifalarni faol belgilash taqozo etiladi.

O'quvchi-yoshlarni kasb–hunarga yo'naltirish jarayonini tashkiliy jihatdan ko'proq harakterga ega bo'lsa- da, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Chunki, barcha pedagogik tadbirlar (tashqi ta'sir) o'quvchining o'zligini aniqlashi va ongli kasb tanlashi uchun xizmat qiladi, uning kasbiy o'zligini anglash jarayoni (ichki ta'sir) esa psixologik qonuniyatlar asosida kechadi.

Mustaqil davlatimizning xar bir avlodini barkamol va o'z kasbining ustasi qilib tayyorlash bosh maqsadimizdir.Oliy ta'lim soxasida izlanuvchanlik, yaratuvchanlik, ijodkorlik analitik tafakkurga ega bo'lish, vaqtdan unimli foydalana olish, kasbiy o'z-o'ziga talabchanlik, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonish, kommunikativlik, tashkilotchilik, kasbiy o'z-o'zini tahlil eta olish kabi sifatlar ulug'lanadi. Bo'lajak mutaxassislarda talabalik davridan ilmiy dunyoviy dunyoqarashni shakllantirish yig'indisi va natijasida ma'naviy ijtimoiy-innovatsion maydon vujudga keladi.Qachonki bo'lajak mutaxassis shaxs sifatida o'z-o'zini kasbiy taftish eta olsa va o'z imkoniyatlariga hamda kuchiga ishonsa muvaffiyatsizlikka olib keluvchi omillarni yengib o'ta oladi.

Davlat va jamiyatni aql-idrokli, uqvli, kasb hunarli, uddaburon, tadbirkor izlanuvchan, mehnatsevar, o'z tolei va nasibasini  o'z-o'zi shakllantiruvchi insonlar boy va badavlat qilishadi.Darhaqiqat, akademik shoirimiz G'afur G'ulom o'rinli ta'kidlaganidek, "Taqdirin qo'l bilan yaratur inson, g'oyibdan kelajak baxt bu-afsona".Bunday dono fikrlar hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi, albatta.

**1.2§. Ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'llash jarayoni tadqiqot obyekti sifatida.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardanoq jahon taraqqiyotida muhim o'ringa ega milliy ma'naviyatimiz asosida Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bosh maqsad etib belgilandi. Ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy e'tibor yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilganligi milliy an'analarimiz, mentalitetimizning o'ziga xos ifodalanishidir. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan taklif etilgan va respublikamizda izchil amalga oshirib borilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modeli bugungi kunda jahon miqiyosida e'tirof etildi va o'zining dastlabki natijalarini bermoqda.

Biroq, qayd etilgan yutuqlar bilan birga, kasbiy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun to'laqonli xizmat qilmayotgan sohalar ham mavjud. Jumladan, o'quvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini dars jarayonida shakllantirishga bir qadar e'tibor qaratilayotgan bir davrda, darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda tizimlilik, maqsadga yo'naltirilganlik yetarlicha o'z aksini topmay kelmoqda.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishning turli tomonlarini vatandosh pedagog olimlarimiz Mavlonova R.A., Nishonaliyev U.N., Tursunov I.I., Tolipov O'.Q., Rashidov H.F., Choriyev E.T., Shodiyev N.SH., P.Xolmatov va boshqalar tadqiq qilganlar va o'zlarining darslik, metodik qo'llanma hamda tavsiyalarida yoritib berganlar.

O'quvchilarning mehnat va kasb ta'limi hamda kasbga yo'naltirish ishlarining ayrim o'ziga xos tomonlariga oid muammolar Bulatov S.S., Mazur V.A., Qodirov B.I. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Jumladan, E.T.Choriyev o'quvchilar mehnatini tashkil etish, qishloq maktablarida mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlarini yoritib bergan. Shuningdek, u o'z ishlarida mehnat tarbiyasi shaxs fazilatlarining shakllanishida yetakchi o'rinni egallashini ko'rsatib, masalaga ijodiy yondashish yo'llarini yoritgan. E.T.Choriyev qishloq maktablarida mehnat tarbiyasining usul va

metodlarini yaratishda ishlab chiqarish jamoasining o‘rnini, mehnat tarbiyasini, darsdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonining mazmunini, vositasi va yo‘llarini ko‘rsatib berdi. O‘zbekiston Respublikasining agrar davlat ekanligini, ishlab chiqarishning asosiy qismi qishloq xo‘jalik sohalariga to‘g‘ri kelishini va bu yo‘nalishda bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlashga jiddiy e’tibor berish kerakligi E.T.Choriyev tomonidan ta’kidlangan.

Mehnat ta’limi va kasb ta’limining muhim sohalaridan hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg‘otish, kasblarga yo‘naltirish, o‘quvchilarni kasb tanlash ishlari bo‘yicha darsdan, maktabdan tashqari ishlarni olib borish, kasbiy axborotlar uyushtirish, o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash hamda tadqiq etish N.SH.Shodiyev ishlarida yoritilgan. Uning «O‘quvchilarning darsdan va maktabdan tashqari ishlari» nomli monografiyasida kecha, to‘garak, sayohat, uchrashuv kabilarni tashkil etish, o‘tkazish yo‘llari batafsil bayon etilgan.

R.A.Mavlonova o‘zining qator izlanishlarida boshlang‘ich sinflardagi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni, mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish mazmunini takomillashtirish borasidagi tadqiqot natijalarini bayon qilgan. Ana shu izlanishlar asosida u I-IV sinflar uchun darslik va qo‘llanmalar majmuasini yaratdi.

K.Davlatov o‘zining «Mehnat va kasb ta’limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar» nomli qo‘llanmasida mustaqil va laboratoriya ishlariga doir materiallarni bayon etgan hamda vazifa va topshiriqlarni bajarish, masalalarni hal qilish, maktab o‘quvchilarining mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha saviyasini oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish yo‘llarini yoritib berdi. K.Davlatov va V.A.Chichkovlarning «O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash» nomli metodik qo‘llanmasida to‘garak mashg‘uloti, sayohat, uchrashuv, kecha kabilarni uyushtirish va o‘tkazish yo‘llari yoritilgan.

P.Xolmatov esa o‘zining ilmiy izlanishlarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llashda darsdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning ahamiyati kattaligi haqida fikr yuritib, darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnalogiyasini tavsiya etgan. P.Xolmatov ilmiy

izlanishda,asosan, ekskursiya, to‘garak mashg‘ulotlari hamda kasb kechalariga o‘z e’tiborini qaratgan.

Respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda qo‘yilgan talablar yosh avlodni kasbga yo‘naltirishning ilmiy va amaliy muammolari yechimini topishga qaratilgan tadqiqotlar faollashuviga sabab bo‘ldi. Bu boradagi tadqiqotlarlarning yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo‘nalishlarini qayd etish mumkin:

- o‘quvchilarning kasblar olamida yo‘nalish olishiga yordam beruvchi hamda o‘z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko‘nikmalari zarur darajasini ta’minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish;
- o‘quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o‘rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;
- yoshlarga kasbiy maslahatlar uyushtirishning nazariy va metodik asoslari;
- kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli motivlarini asoslash;
- qishloq maktablarida o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashning vosita va yo‘llari;
- bitiruvchi sinf o‘quvchilarini ishchi kasblarga yo‘naltirishning mazmuni, shakl va metodlari;
- O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tadbiq etish sharoitida o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashning pedagogik shart-sharoitlari;
- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo‘llash ishini boshqarish xususiyatlari.

Biroq, bizgacha mavjud bo‘lgan tadqiqotlarda muayyan natijalar olingan bo‘lsa-da, bugungi kunda kasb-hunar tanlashga yo‘llash ishlarining asosiy maqsadi – har bir o‘quvchining shaxsiy sifatlariga, qiziqish, qobliyat, va moyilliklariga, kasb tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, qobliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish va jamiyat talablariga hamda kasb talablariga mos keluvchi sohani ongli ravishda

tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi hal etilgan emas. Muammoning to‘laqonli yechimini topishga to‘siq bo‘layotgan asosiy holatlardan biri tadqiqotlarning odatda qandaydir tartibda belgilanadigan o‘rtacha olingan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Natijada:

1) kasb tanlayotgan o‘quvchiga individual, tabaqalashtirilgan yondashuv joriy etilmayapti;

2) aksariyat holatlarda quruq so‘zlashuvdan iborat deklarativ metodlar bilan cheklanilmoqda;

3) o‘quvchini qiziqtirgan yoki tanlagan kasbi xususiyatlari bilan bevosita tanishishi uchun keng imkoniyat yaratilmayapti.

O‘quvchilarni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib kasb tanlashga yo‘llash uchun zarur bo‘ladigan shahar, tuman va boshqa hududiy muassasalarning mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji to‘g‘risida joriy va istiqbolli dasturlar ishlab chiqilmagan. Shu sababli o‘quvchilarning hayotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan mehnat ta’limi mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Umumta’lim maktablari mehnat ta’limi mashg‘ulotlaridagi (texnologiya va dezayen, qishloq xo‘jaligi bo‘limi)dagi amaliy ishlarni bajarish jarayonida, o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkazish hamda o‘quvchilar, ularning ota-onalari bilan so‘rovnomalar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini aniqlagan holda qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini rivojlantirish kerak bo‘ladi.

Umumta’lim maktablarining mehnat talimi darslari va barcha shakllardagi ishlarning chuqur ichki mohiyati o‘quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag‘batlantirish hamda individual qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini uyg‘unlashtirishdan iboratdir.

Respublikamiz ta’lim mazmuni tubdan isloh etilayotgan bugungi kunda o‘quvchilarning texnik ijodkorlik mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan talablar ham yangi asoslarda qayta ishlanmoqda. So‘nggi yillarda, asosan, yangi va takomillashtirilgan ko‘rsatmali qo‘llanmalar va ta’limning texnik vositalari, maktab ustaxonalari uchun texnologik moslamalar, homiy va otaliq korxonalarda xo‘jalik hisobidan

amalga oshiriluvchi tadqiqot ishlari doirasida amalga oshiriluvchi mavzular mehnat ta’limi darslarida o‘quvchilar texnik ijodkorligining obyektlari bo‘lmoqda.

Pedagog olimlar V.A.Gorskiy, D.M.Komskiy, I.F.Razdimalinlarning fikricha, o‘quvchilarning jonli tabiatni chuqur o‘rganish, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini, qoramollar va parrandalarning mahsuldorligini oshirish yo‘llarini eksperimental tadqiq qilish, qishloq xo‘jaligining rentabelligini yuksaltirish imkoniyatlarini aniqlash, mahalliy iqlim sharoitlarining imkoniyatlarini hisobga olish, o‘quvchilarning tabiat muhofazasiga doir faoliyati, jonli tabiat burchagidagi, maktab tajriba maydonchasidagi, o‘quvchilar ishlab chiqarish jamoasidagi, issiqxona va gulxonalar bazasidagi ishlar bilan bog‘liq amaliy faoliyatini o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyati jarayonidagi qishloq xo‘jalik tajribachiligi[2], deb atash qabul qilingan[26].

Yuqorida ta’kidlangan olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, biz quyidagicha ta’rif berdik: «o‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini aniqlab qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirib xalq xo‘jaligining kerakli bo‘lgan kasblarini tanlab, ertangi kunda xalq xo‘jaligining rivojlanishiga o‘zlari ongli ravishda tanlagan kasblari bilan o‘z hissasini qo‘shishlaridadir».

Pedagog olimlarning fikrlarini tahlil qilib, tadqiqotimizning eksperiment natijalariga tayangan holda biz umumta’lim maktablarining mehnat ta’limi mashg‘ulotlarida kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning moyilliklarini aniqlab qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish katta hayotga kirib kelayotgan yoshlar kelajakda o‘z kasblarining yetuk mutaxassislari bo‘lib yetishishga, ertangi kunda yoshlar tanlagan kasblaridan afsus qilmaslikka va o‘quvchilar tanlayotgan kasblari yuzasidan rejalashtirayotgan g‘oyalarini amalga oshirishda yordam beradi degan xulosaga keldik.

Bunda taqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablari mehnat ta’limi darslarini o‘tish vaqtida amaliy ishlarni bajarish mobaynida o‘quvchilarning amaliy topshiriqlarni bajarishi natijasida qiziqish, qobiliyat va moyilliklari qaysi

---

[2] GorskiyV.A., KomskiyD.M., RazdimalikI.F. Texnikijodkorlikvaqishloqxo’jaliktajribachiligibo’yichasinfdantashqariishlar. – T.: O’qituvchi. 1991y. – 184 b. 25-bet.

kasblarga borligini aniqlasa bo‘lar ekan. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash ishlarini uyushtirishda mehnat o‘qituvchisi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Albatta, u o‘z faoliyatini dastlab ta’lim standartlari asosida olib borishi talab etiladi. Zero, mehnat ta’limining vazifalari Davlat ta’lim standartlari (DTS) va o‘quv dasturida ifodalangan[6]. Ushbu hujjatlarda maktabdagi mehnat ta’limi va tarbiyasining maqsadi izchil ta’riflanib, uning mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘usini singdirishdan, o‘quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish, qurilish, transport, xizmat ko‘rsatish sohalari asoslari bilan tanishtirishdan, o‘qish va foydali ish jarayonida ularda mehnat ko‘nikmalari va mahoratini hosil qilishdan, ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang‘ich hunar ta’limini olishga undashdan iboratligi ta’kidlangan.

Mehnat ta’lim darslarida mehnat ta’lim va tarbiyasining umumiy vazifalari yanada aniqlashuvi ularni quyidagi uchta guruhga birlashtirishni taqozo etadi.

***Umumta’limiyvazifalar:***

- o‘quvchilardaxalqxo‘jaliginingturlitarmoqlaridagiishchilar, texniklar, muhandislarmehnatfaoliyatiningmazmunihaqidagi, asbob-uskunalar (mexanizmlarvamashinalar), texnologikjarayonlarhamdaishlabchiqarishningtashkiletilishihaqidagibilimvatasavvurlarnikengaytirishhamdachuqurlashtirish;

- o‘quvchilarnitexnikadagiilg‘ortexnologikg‘oyalarevolyusiyasiningyo‘llaribilan, hozirgizamonishlabchiqarishidafan-texnikarivojlanishiningasosiyyo‘nalishlaribilantanishtirish;

- o‘quvchilarnimamlakatimizdayoshlarningommaviy,ilmiyvatexnikijodkorliginingtashkiletilishshakllaribilantanishtirish, texnikamadaniyatimalakalarinitarkibtoptirishvatakomillashtirish, ilmiy-texnikadabiyotlarbilanishlashqoidalarini, o‘quvchiniqiziqtirganfan,

texnikavaishlabchiqarish, texnologikmasalalarbo‘yichazarurilmiy-texnikaxborotlarolishyo‘llarinitushuntirish;

- hozirgi zamon ishlab chiqarishida ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarini tashkil etish asoslari bilan tanishtirish;

- o‘quvchilarni mazkur mintaqadagi hunar-ta’lim tizimi bilan, tumandagi ishchi kasbining qiziqarli jihatlari bilan tanishtirish.

***Tarbiyaviy vazifalar:***

- o‘quvchilarda bilishga intilishni, texnik havaskorlikni va mazkur mintaqadagi texnika hamda ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlariga barqaror qiziqishni tarbiyalash;

- mahalliy fabrikalar, korxonalar, qishloq xo‘jaligi sohasida, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat ko‘rsatayotgan yuqori malakali ustalarga, fan, texnika va ishlab chiqarishning taniqli mutaxassislariga chuqur hurmat tuyg‘usini tarbiyalash;

- o‘quvchilarda hayotda, mehnatda, o‘qishda, mustaqil bilim olishda, birga yashaydigan kishilarga, o‘rtoqlarga munosabatda, mahalliy ishlab chiqarishdagi eng hurmatli mutaxassislarga taqlid qilish ishtiyoqini tarbiyalash va rivojlantirish;

- kishilar mehnati natijalariga ongli munosabatni; isrofgarchilikka murosasizlikni, tabiatga tejamli munosabatni tarbiyalash, iqtisodiy va ekologik tarbiya berish;

- mehnatga ijodiy munosabatni, mahalliy ishlab chiqarishdagi ilg‘orlarning mehnat usullariga, mahalliy korxonalardagi ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarining mavzular rejalariga, mazkur mintaqa uchun yetakchi tarmoqlarda band bo‘lgan kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalash; aniq ish o‘rnida ishlashga ongli ehtiyojni oshirish;

- mahalliy korxonalar tarixiga, ishlab chiqarishda foydalaniladigan mashinalar va mexanizmlarning tarixiga, mahalliy ishlab chiqarishdagi kasblar tarixiga, mehnat faxriylariga hurmatni kuchaytirish.

***Amaliy vazifalar:***

- turli asboblar, moslamalar, jihozlar va mashinalar bilan ishlashda mehnat mahoratini rivojlantirish va takomillashtirish;
- aniq ish o‘rnida mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati mavjud bo‘lgan texnik, ishlab chiqarish muammolarini topish va ularni hal etish ko‘nikmasini tarkib toptirish va rivojlantirish;
- ratsionalizatorlik taklifi uchun talabnomalar yozish, yaratilgan texnik qurilmaning texnik tafsilotini tuzish malakalarini, tavsiya etilgan loyihani yoqlash ko‘nikmalarini egallash;
- ratsionalizatorlar va ixtirochilar bilan hamkorlikka intilish, ularning ijodiy ishlash tajribasini o‘zlashtirish.

Mana shu barcha pedagogik vazifalarni hal qilishda o‘quvchilar bilan olib boriladigan dars va darsdan tashqari ishlar o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishning umumiy tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Ushbu xususiyatlarning biri dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning barchasi maktabdagi ta’lim-tarbiyaning umumiy vazifalariga bo‘ysunishi yuqorida aytilgan edi. Ularning boshqa bir xususiyati shundaki, o‘quvchilar ko‘pincha ancha kuch va vaqtni talab qiladigan texnik ijodkorlik yoki qishloq xo‘jalik tajribachiligida fan, texnika, ishlab chiqarishning biror tarmog‘iga qiziqishlari tufayli vujudga kelgan o‘z xohishlari bilan qatnashadilar. Shunga ko‘ra, yuqorida olingan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ixtiyoriy tashabbus o‘quvchilarni darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb-hunar tanlashga yo‘naltirishning eng muhim talablaridan biri deb hisoblaymiz.

O‘quvchilar har qanday ish bilan qiziqib, berilib shug‘ullansalar, g‘oyat faollik va mustaqillik ko‘rsata oladilar. Ana shu sifatlarni rivojlantirish bolalarda ijodiy tashabbuskorlikni tarbiyalashning zarur shartidir. Nihoyat, o‘quvchilarning maktabdagi dars va darsdan tashqari hamda maktabdan tashqari muassasalardagi mashg‘ulotlarda o‘z imkoniyatlari doirasidagi vazifalar bilan shug‘ullanishi, yosh tashabbuskorlar ijodiy faoliyatining tavsifi, ularning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi juda muhimdir. O‘quvchilarning maktabdagi dars va darsdan tashqari

hamda maktabdan tashqari mashg‘ulotlari sifatida tehnik ijodkorlik ishlarini qarash mumkin.

Texnik ijodkorlik o‘quvchilarning qiziqish va mayllarini, yoshi va bilim darajasini hisobga oladigan mavzular bo‘yicha VIII-IX sinflardagi barcha o‘quvchilarni qamrashni nazarda tutadi.

Texnik ijodkorlik ishining xususiyatlaridan biri shuki, bu ish kishida vazifaga ijodiy yondoshishni shakllantirishi, uni butun hayoti davomida doimo izlanishga chog‘lantirishi kerak.

Texnik ijodkorlik nazariy, amaliy va ishlab chiqarish tarzidagi darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlardir. Bu ishlarda uzilish bo‘lmaydi, u butun yil bo‘yi davom etadi.

Texnik ijodkorlik ishlari ta’lim bilan uzviy bog‘lanishi kerak. Xususan, laboratoriya-amaliy ishlarni bajarishda turli masalalarni o‘rganishda bilishning tadqiqotchilik metodi o‘rinlidir. Tajribalar o‘tkazishdan oldin ularning vazifasini: bu ishlar orqali qanday yangi tushunchalar shakllanishi va mavjud tushunchalarning qaysilari kengayishini, o‘quvchilar qanday bilish uslublarini o‘zlashtirishini, o‘quvchilarning bilishga qiziqishlari qanday qondirilishini, ularda qanday ehtiyojlar vujudga kelishini, mazkur ishlar o‘quvchilarning qishloq xo‘jalik kasblarini bilib olishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash kerak.

Texnik ijodkorlik pedagogning faoliyatida epizod yoki tasodifiy hol bo‘lmasligi, balki uning ish usuliga, ishlab chiqarish uslubiga va kasbiy majburiyatiga aylanishi kerak. Bu ishni maktabning umumiy o‘quv-ishlab chiqarish faoliyatiga bog‘lamay, o‘quvchilar ta’limi va tarbiyasining umumiy muammolaridan alohida yo‘sinda bajarish mumkin emas. Aks holda, hatto, qiziqarli tajriba ma’lumotlarining ham xo‘jalik uchun foydali ekanligini va ularni ishonch bilan qabul qilish mumkinligini isbotlash qiyin bo‘ladi.

O‘quvchilar texnik ijodkorligini rivojlantirishning didaktik va tashkiliy xususiyatlari to‘g‘risida ham ko‘p jihatdan yuqoridagicha tavsiflash mumkin. Yosh texniklarning faoliyati doimiy izlanish, tajriba ishlari va tadqiqot ishlaridan, albatta, qo‘shimcha axborot manbalariga murojaat etish va bilishning yangi

metodlarini o‘zlashtirish orqali ijodiy vazifalarni hal qilishdan, chuqur nazariy bilimlarga tayanishdan va amaliy ko‘nikma hamda malakalarni uzluksiz takomillashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, yosh texniklar, yosh ixtirochilar va yosh konstruktorlar faoliyatida amaliy natijalar muhim o‘rin tutadi. Bunda yosh tashabbuskorlarning shunchaki oddiy narsalarni emas, maktab uchun zarur buyumlarni va ishlab chiqarish uchun kerakli yuksak samarali texnik qurilmalar, jihozlar, mashinalar va hokazolarni yaratishiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Endilikda bolalar, o‘smirlar va yoshlarning darsdan tashqari ishlardagi texnik ijodkorligi singari amaliy bilishning, fan, texnika va ishlab chiqarish dunyosini ijodiy o‘zlashtirish hamda takomillashtirishning o‘ziga xos va juda samarali metodlariga aylanmoqda. Shu sababli maktabdan tashqari bolalar muassasalarining butun tizimini mehnat va ishlab chiqarish bilan bog‘lash (politexnika) ta’limning eng ilg‘or metodlarini ishlab chiqish hamda amalda sinash va keyinchalik umumiy ta’lim maktabi amaliyotiga joriy qilish uchun o‘ziga xos tajriba-sinov maydoni sifatida qarash mumkin.

Texnik ijodkorlik faoliyati bilan muntazam shug‘ullanishi natijasida o‘quvchilarda umumiy madaniyat yuksaladi. Ularning ilmiy texnik bilimdonligi, fan, texnika va ishlab chiqarish tarziga doir, shuningdek, mahalliy ishlab chiqarish ilg‘orlari, ixtirochilar, olimlar haqidagi, homiy tashkilotlar, xo‘jaliklarning hal etilishi lozim bo‘lgan muammolari to‘g‘risidagi bilimlari ortadi. O‘quvchilar aniq ishlab chiqarish sohasining rivojlanish istiqbollarini, uning mamlakatimiz xalq xo‘jaligidagi o‘rni va ahamiyatini yaxshiroq tushuna boshlaydilar (umumta’limiy samara). O‘quvchi shaxsida katta o‘zgarishlar ro‘y beradi, uning xulqi, o‘rtoqlariga, o‘qishga va ijtimoiy foydali mehnatga, mehnat jamoasiga munosabati yaxshilanadi, ijodiy mustaqilligi va kasbiy intilishi kuchayadi, amaliy vazifalarni bajarish uchun, o‘ziga yaqin kishilar ota-onalari, o‘qituvchilarining, o‘quvchilar mehnat birlashmalaridagi o‘rtoqlarining mehnati samaradorligi va sifatini oshirish uchun shuningdek, (mustaqil holda yoki rahbarning, maslahatchining yordami bilan) qurilma, jihozlar va boshqa texnik obyektlarni ishlab chiqish va

tayyorlashda yoki tajribachilik ishini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ijodiy faoliyat jarayonida o‘zlashtirgan bilim va tajribalaridan foydalanish ko‘nikmasi takomillashadi.

Umumta’lim maktablarida mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish mazmunining an’anaviy tuzilishi quyidagicha bo‘lgan:

***Texnologiya va dizayn*** – yog‘ochva metallarga ishlov berish, elektrotex-nika asoslari, modellashtirish, qog‘oz va kartondan turli shakllar yasash.

***Qishloq xo‘jaligi asoslari***– o‘simlikva chorvachilik asoslari, qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash, agronomiya asoslari, tuproqqa ishlov berish, tuproqshunoslik, qishloq xo‘jaligi texnikasi.

***Servis xizmati–*** bichish, tikish asoslari, tikish mashinasi, uy-ro‘zg‘or asoslari, pazandachilik asoslari  oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish.

Bugungi kunda, ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘qitilayotgan mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirishda an’anaviy tartibdagi o‘quv mashg‘ulotlari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar sifati, mazmuni, tizimi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va mustaqil taraqqiyot talablariga javob bera olmay qoldi.

Kuzatish va tahlillarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, umumta’lim maktablaridagi an’anaviy tizimdagi kasbga yo‘naltirish ishlari jarayonida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim metodlari yangi pedagogik va axborot texnologiyalari talablari asosida tashkil etilmagan. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun metodik qo‘llanmalar yetishmaydi va mavjudlari ham hozirgi zamon talablariga javob bermaydi. Ayniqsa kasb tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, qobliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish masalasiga alohida e’tibor berilmagan.

Kasbga yo‘naltirish ishlarini respublikamiz ta’lim islohotlari talabi darajasida yo‘lga qo‘yish, respublikamiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda bu borada to‘plangan ilg‘or tajribalarni ijodiy tadbiq qilish, o‘quvchilarning qiziqish, qobliyat va moyilliklari uyg‘unligi asosida ularni  kasb tanlashga yo‘llash davr taqozosi hisoblanadi.

Tadqiqotimizni olib borishda Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanidagi 5-umumta’lim maktab, Toshkent shahri Olmazor tumanidagi tumanigi 134-196 umumta’lim maktablarida kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlarining quyidagi shakllari mavjudligini kuzatdik:

- ***dars jarayonidagi ishlar:***

a) mehnat ta’limi darslarida kasb tanlashga yo‘llash;

b) boshqa fan asoslarini o‘rganishda kasb tanlashga yo‘llash.

- ***darsdan tashqari ishlar:***

a) turli sohalar bo‘yicha tashkil etiladigan to‘garaklar;

b) o‘quv ustaxonasidagi amaliy ishlab chiqarish mashg‘ulotlari;

v) ishlab chiqarish sayohatlari;

g) maktab o‘quv-tajriba yer maydonida ishlash;

d) jonli burchak tashkil etish hamda issiqxonalardagi faoliyat;

ye) tashkil etiladigan hashar va shanbaliklarda ishtirok etish;

yo) sinfda, sinflararo, maktablararo, tuman, viloyat, respublika miqiyosida o‘tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etish;

j) turli ommaviy tadbirlarda qatnashish kabilar.

- ***maktabdan tashqari ishlar:***

a) guruhli va ijara pudratida ishlash;

b) qo‘shma, xususiy va davlat korxonalari faoliyatida ishtirok etish;

v) oilaviy mehnat, kasb-hunar, hunarmandchilik;

g) ishlab chiqarish sayohatlarini tashkil etish;

d) mavsumiy ishlarda ishtirok etish;

ye) homiy va otaliq korxonalari bilan shartnomalar asosida buyurtmalarni bajarish.

Tadqiqot ishining keyingi bosqichlarida yuqorida ko‘rsatilgan o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirish shakllarining samaradorlik jihatlari berilgan.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llashga oid dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda o‘quvchilarning qiziqishlari,

qobilyat va moyilliklari, ushbu sohani o‘rganishning umumiy holati, sifat darajasi bilan tanishish va tahlil qilishga harakat qildik.

Bu ishlarni olib borish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan test, so‘rovnoma, suhbat, kuzatish kabi metodlar orqali tadqiqot ishimizning dastlabki tasdiqlovchi bosqichini olib bordik.

Umumta’lim maktablarida kasb-hunarga yo‘llashga asoslangan darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishda o‘quvchilarning yosh, ruhiy, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirishda hunarmandchilik jihoz (material)lari bilan tanishtirish va ishlov berishda mehnat ko‘nikma va malakalari shakllantirib borildi. Shu bilan birga, ularning qiziqishi, qobilyat va moyilliklariga ko‘ra o‘zini o‘zi kasbiy jihatdan aniqlash, kasb-hunar turlarini tanlashi, hunarmandchilik sohalari va ularda ishlatiladigan asbob-uskuna, yangi texnika, ilg‘or texnologiyalarni o‘rganib borishlari hamda mehnat faoliyatida ishtirok etishlari ta’minlandi.

Tadqiqot ishining shakllantiruvchi bosqichida mehnat ta’limidarslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb-hunarga yo‘llash ishlarining ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuv, suhbat, bahs, sayohat, ko‘rik, musobaqa, mehnat amaliyoti, o‘quvchilar mehnat uyushmasi kabi shakllarning mazmuni va tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi hamda zamon ruhiga moslashtirildi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar shakllarini samarali ravishda amalga oshirish, umumta’lim maktablari, oila, mahalla-jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq hunarmandlari va ustalarining ish tajribalari o‘quv jarayonida foydali mehnat mahsulotlarini tayyorlab, ta’lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishi va moddiy jihatdan kafolatlanishiga yordam beruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar shakllarini tashkil etish, jumladan, to‘garaklar, ko‘rik, musobaqa, munozarali bahs, uchrashuv, har xil turdagi o‘yin, ko‘rgazmali chiqish, sayohat va shu kabilardan foydalanish ta’limni samarali amalga oshirishning muhim shakllaridan hisoblanadi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fanlardan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va

malakalarini mustahkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi va bu ta’ssurotlar ularning ijodiy qobiliyatlarini o‘stiradi hamda badiiy-estetik didini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘z vaqtida rejali, tartibli o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning har bir tadbirlarga bo‘lgan qiziqish va havaslarini yanada oshiradi, ma’naviy, mafkuraviy tasavvurlarini boyitadi.

Mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha o‘tkaziladigan darsdan tashqari mashg‘ulotlar shakllari yetarlicha o‘rganilgan. Biroq, bu mashg‘ulotlarning mazmunini o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasi bilan boyitish muammosi yetarli darajada hal etilmagan.

Umumta’lim maktablarida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun barcha sharoitlar mavjud bo‘lsa-da, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash ishlarida bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Bizning fikrimizcha, bu kamchiliklar quyidagilardan iborat:

- darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishga har tomonlama tayyor, malakali mutaxassis-pedagog kadrlar, ya’ni mehnat va kasbga yo‘naltirish ta’limi o‘qituvchilarining yetishmasligi, faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar ham kasb tanlashga yo‘llash bo‘yicha yetarli tajribaga ega emasligi;
- darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun zaruriy metodik qo‘llanmalar, texnik, texnologik hujjatlarning kamchiligi;
- maktab bilan ota-onalar kengashi va mahalla, jamoatchilik o‘rtasida mustahkam aloqaning yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- otaliq tashkilotlari ma’muriyatining o‘quvchilar mehnat amaliyotini tashkil etishga oid maxsus hujjatlar, ma’lumotlar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi;
- korxona ma’muriyati tomonidan amaliyotchilarga zaruriy sex, ish o‘rni va kiyimlar, kerakli asbob-uskuna, jihoz, texnika xavfsizligi uchun muhofaza vositalari va shu kabilar ajratilmaganligi.

## 1.3§. O‘quvchilarning erkin kasb-hunar tanlash muammosi va yechimlari

Umumta’lim maktablarida kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish ishlari 1-9 sinflarda uzluksiz tarzda o‘quvchilarga tizimlashtirilgan kasbiy axborotlar va kasbiy maslahatlar berish, shaxsning psixologik-pedagogik tashxisi asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonni kasbga yo‘naltiruvchi mutaxassislar, psixologlar, asosiy fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlari amalga oshiradilar. Kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis Markazlari bu ishlarni muvofiqlashtiradi hamda metodik jihatdan rahbarlik qiladi. har bir umumta’lim maktablarida har yili tuziladigan va maktab direktori rahbarlik qiladigan kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish komissiyalari faoliyat ko‘rsatadilar. Komissiya bitiruvchilar tanlagan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tayyorlov yo‘nalishlariga yakuniy xulosalar asosida tavsiyanomalar beradi. Kasb-hunar tanlashga yo‘naltirishning ayrim elementlari o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining bo‘linmalarida, mudofaa vazirligi va oliy ta’limdan keyingi ta’lim muassasalarida ham amalga oshiriladi.

Kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish hududiy markazlariga va umumta’lim maktablariga asosiy ma’lumoti to‘g‘ri keladigan va amaliy ish tajribalari yetarli bo‘lgan kadrlarni tanlab olishda qiyinchiliklar mavjud.

O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchilarni moyillik va qiziqishlari bo‘yicha qabuldan tanlov asosidagi qabulga o‘tildi (asosan, akademik litseylarda) yoki aksincha, nufuzli bo‘lmagan tayyorlov yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlariga yoppasiga qabul qilish hollari uchramoqda.

Xalq xo‘jaligi majmuasi tarmoqlaridagi tarkibiy va kasbiy-malaka o‘zgarishlari to‘g‘risidagi axborotlarning o‘z vaqtida yig‘ilmasligi hamda ularning to‘liq emasligi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samarasini pasaytirmoqda. Mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan ko‘pgina korxonalar, o‘quv yurtlari va bandlik xizmatlari kasb-hunarga yo‘naltirsh ishlari bo‘yicha hamkorlikka yetarlicha e’tibor bermayotirlar.

Kasb-hunarga yo‘naltirsh borasidagi ishlarni amalga oshiruvchi kasb-hunarga yo‘naltirsh Markazlari, umumta’lim maktablari, yoshlar ijtimoiy harakati, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda oliy o‘quv yurtlari, bandlik xizmatining tegishli davlat tuzilmalari, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona va muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni bugungi kun talablariga mos holda kuchaytirish zarur.

Mavjud kasb tanlashga yo‘llash ishlari holatini o‘rganish va tahlil qilish orqali o‘quvchilarning erkin kasb-hunar tanlash muammolarining yechimlarini quyidagilarda deb topdik:

- o‘quvchilarga mavjud mutaxassisliklar, ularning tasnifi, shuningdek, ularni kasbiy faoliyat sifatida tanlanishiga imkon beruvchi bilimlar, ma’lumot manbalar (ma’lumotnoma, lug‘at, tavsiyanoma hamda estaliklar va boshqalar) ni ko‘paytirish;
- umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatni tanlashga yo‘naltirish ishiga alohida e’tibor berish;
- o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish jarayonida umumta’lim maktablari, oila, mahalla, jamoatchilik, shuningdek, tashxis markazlari o‘rtasida mustahkam hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish;
- kasb-hunar kollejlari tavsifnomasidagi kasblar to‘g‘risida maktabda to‘liq ma’lumot berish, maktablar va kasb-hunar kollejlari o‘rtasida uzluksizlik va uzviylikni to‘liq amalga oshirish;
- o‘quvchilarni qiziqish, qobiliyat va moyilliklariga mos keluvchi kasblarga yo‘naltirish;
- o‘quvchilarni hozirgi kundagi yangi zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda ularning qiziqish, qobiliyat va moyilliklari uyg‘unligini to‘liq hisobga olish.

Shu bilan birga quyidagilarga ham e’tibor qaratish zarur:

- barcha umumta’lim maktablarida zamonaviy talablar asosida jihozlagan kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish xonalarini tashkil etish, psixologik-

pedagogik tashxis, kasbiy maslahat ishlarini o‘tkazishda tashkiliy ishlar, axborot va kadrlar ta’minotiga katta e’tibor qaratish;

- o‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida akademik litseylardagi tanlov asosidagi qabul yoki nufuzli bo‘lmagan tayyorlov yo‘nalishlardagi kasb-hunar kollejlariga yoppasiga qabul qilishda ham birinchi galda o‘quvchilarning qiziqish, moyillik va qobilyatlarini hisobga olish va boshqalar. Yuqoridagilar asosida kasb-hunar tanlashga yo‘naltirishning bir butun tizimini yanada rivojlantirish lozim.

Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchisida axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirish.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi axborotlashtirish jarayonini xarakterlaydi.Zero, axborotlashtirish barcha ijtimoiy tuzilmalarni qamrab oladi. U axborotni egallashning tizimli-faoliyati jarayoni sifatida tushiniladi.Axborot esa boshqarish va rivojlanish resursi hisoblanadi.Axborotlashtirishning asosiy maqsadi informatika vositasi yordamida axborot jamiyatini yaratishdir va shu asosda sivilizatsiya taraqqiyotini davom ettirishdir.Jamiyatni axborotlashtirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri ta’limni axborotlashtirishdir.Ta’limni axborotlashtirish esa, o’z navbatida, yangi maqsad va fazifalarni ilgari suradi, yangi imkoniyatlar va ufqlarni ochadi, shu bilan birgalikda o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga yangi talablar qo’yadi.Shu bois, hozirgi vaqtda vaqtda tobora oydinlashmoqdaki, o’qituvchini o’z faoliyati jarayonida zamonaviy ta’lim va axborot-kommunikatsion texnalogiyalaridan keng foydalanishga tayyorlash lozim.Zamonaviy ta’lim va va axborot-kommunikatsion texnalogiyalaridan foydalanish o’qituvchi kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Demak, hozirgi zamon o’qituvchisining axborot-kommunikatsion kompetentligi muhim kasbiy kompetensiyalardan biridir. O’z navbatida, o’quv muassasalari ta’lim jarayonida yangi texnologiyalarni qo’llash masalasi pedagog kadrlarni ushbu faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash muommosi bilan uzviy bog’liq.Shuning uchun pedagogik ta’limni axborotlashtirish, qator olimlarning fikricha, dialektik o’zaro bog’liq uch jarayonni qamrab olishi kerak:

-mediatizatsiyalash –axborotni to’plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni;

-kompyuterlashtirish- axborotni izlash va qayta ishlash vositalarini takomillashtirish jarayoni;

-intellektuallashtirish-odamlarning axborot(bilim)ni qabul qilish va yaratish qobiliyatini rivojlantirish, ya’ni jamiyatning intellektual potensialini rivojlantirish jarayoni.

Yuqoridagi mulohazalardan ma’lum bo’ladiki,endilikda pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayoni va mazmuniga yangicha yondashmoq zarur.

Kasbta’limio’qituvchilariningaxborot-kommunikatsiontexnalogiyalarisohasibo’yichakasbiykompetentliginishakllanishida tayyorgarlikdarajasiandrogogiknuqtainazaridantalqinetilishilozim.Tinglovchilarnin gegallashlariuchuntavsiyaetilgankurs(kasbiytayyorgarlik) mazmunivariativvainvariativqismlargabo’linadi.

Kursbo’yichatayyorgarlikmazmuniningvariativqismiquyidagilargamuvofiqbo’lishi kerak:

-kasb ta’limi o’qituvchilarining dolzarb ta’limiy ehtiyojiga;

-kasb ta’limi o’qituvchilari tomonidan yechiladigan masalalarning murakkabligi va darajasiga;

-axborot-kommunikatsion texnalogiyalardan foydalanishda zamonaviy yutuqlarni aks ettirish;

-keyingi ta’lim uchun potensial yaratish;

-pedagogning ijtimoiy maqomini o’zgartirish  vositasiga aylanishi;

-kasbiy rivojlanishiga imkon berish.

Yuqorida belgilangan vazifalarni maqsadga yo'naltirilgan bosqichma –bosqich ta'lim jarayonida to'la hal etish mumkin.Ta'limning har bir bosqichida tayyorgarlikning ma'lum darajasiga erishish kerak.

Kasb ta'limi o'qituvchilarning axborot-kommunikatsion texnalogiyalari sohasi bo'yicha kasbiy kompetentligi shakllanishini besh darajaga ajratish mumkin:

-boshlang'ich;

-bazaviy;

-funksional;

-konstruktiv ;

-produktiv.

Bunda kurs bo'yicha tayyorgarlik mazmuni shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'ladi.Ta'limning bir bosqichidan boshqa bosqichiga o'tish bilan androgoglarning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

-tinglovchilarda axborot-kommunikatsion texnalogiyalariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;

-tinglovchilarda kasbiy faoliyat jarayonida axborot-kommunikatsion texnalogiyalaridan foydalanish ehtiyojini shakllantirish;

-axborot-kommunikatsion texnalogiyalarini qo'llash bo'yicha umumiy va maxsus ko'nikmalarni shakllantirish;

O'qituvchilarda axborot-kommunikatsion texnalogiyalari sohasi bo'yicha kasbiy kompetentlik shakllanishining boshlang'ich darajasi quyidagilarni nazarda tutadi:

-shaxsiy kompyuter instrumental vositalaridan foydalanish haqida umumiy tasavvur;

-inson kompyuter munosabatida boshqarishning elementar ko'nikmalarini egallash;

-shaxsiy kompyuter bilan ishlashda psixologik "to'siq" ning oldini olish.

Axborot-kommunikatsion texnalogiyalari sohasi bo'yicha kasbiy kompetentlik shakllanishining bazaviy daraja boshlang'ich darajaga asoslanadi va quyidagilarni nazarda tutadi:

-tinglovchilarning pedagogik jarayonni tashkil etish uchun zarur bo'lgan axborotlarni toppish, qayta ishlash va taqdim etishni bilishi;

-zarur axborotlarni moslashtirish va dolzarb ta'limiy masalarni yechish uchun oson bo'lgan shaklda taqdim etish;

-aniq pedagogik masalalarni yechish uchun kerakli axborot ob'yektlarini tezkor jalb etish uchun axborot resursi dekompozitsiyasi malakasi.

Axborot-kommunikatsion texnalogiyalari sohasi bo'yicha kasbiy kompetentlik shakllanishining funksional darajasi oldingi ikki (boshlang'ich va bazaviy) darajaga asoslanadi va quyidagilarni nazarda tutadi:

-darsning turli bosqichlarida faoliyat (loyihalashtirish, rejalashtirish, monitoring, nazorat va boshqalar)ni tashkil etish uchun dasturiy vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish;

-aniq masalalarni yechish uchun dasturiy vositalarning optimal funksiyasini tanlash ko'nikmasi;

-axborot-kommunikatsion texnalogiyalaridan foydalanib pedagogik jarayonni konstruksiyalash, loyihalash malakasi;

Axborot-kommunikatsion texnalogiyalari sohasi bo'yicha kasbiy kompetentlik shakllanishining konstruktiv darajasi quyidagilarni nazarda tutadi:

-ta'lim vaziyatini modellashtirish mexanzmi va shaxsiy pedagogik tizim rivojlanishini prognoz qilish haqidagi bilim;

-o'zi rahbarlik qilayotgan sinf jamoasining ijodiy rivojlanishi uchun axborot resurslarini toppish ko'nikmasi;

-axborot-kommunikatsion texnalogiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy rivojlanishini boshqarish malakasi.

Axborot-kommunikatsion texnalogiyalari sohasi bo'yicha kasbiy kompetentlik shakllanishining produktiv darajasi hozirgi vaqtda eng yuqori daraja sifatida e'tirof etiladi.Ushbu daraja quyidagilarni nazarda tutadi:

-axborot resurslarini yaratishga texnologik, psixalogik-pedagogik talablar, mualliflik, huquqlarini himoya qilish va intellektual mulk ob'yektlarini baholash haqidagi bilimlar;

-mavjud instrumental muhit asosida raqamli ta'limni mustaqil ishlab chiqish va yaratish ko'nikmasi;

Pedagogic masalalarni yechish uchun raqamli ta'limga moslashish, malakalari;

-ta'lim resurslari bozorida ularni harakatga keltirish uchun menejerlik sifatlari.

Xulosa qilib aytganda, ta'limga zamonaviy nuqtai nazardan yondashuvlar bugungi kunda ko'proq kompetentlik,kompetensiya tushunchalari mos keladigan ta'lim maqsadining ahamiyatini tushunishni talab etadi. Ular bilim, ko'nikma va malakalar tushunchalari bilan taqqoslanganda kengroq ma'noga ega bo'lib, "shaxsning yo'nalganligi(motivatsiyasi, qadriyatli yo'nalishlari)ni,uning stereotiplarni yengib o'yish,muommolarni his qila bilish, ijodiy fikrlash qobiliyatini; xarakteri (mustaqilligi, maqsadga intiluvchanligi, irodaviy sifatlari)ni''qamrab oladi.

**1.4&Kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirishning pedagogik tamoyillari.**

Respublikamiz birinchi prezidenti I.A.Karimovning 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining raxbar va pedagogic kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishning chora-tadbirlari tog'risidagi " gi Farmoni oliy ta'lim o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasbiy saloxiyati va malakasi darajasini oshirib boorish, ularni zamonaviy talablarga muofik ravishda muntazam qayta tayyorlashning takomillashgan tizimini joriy etishga qaratilganligi bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Unda oliy ta'lim muassasalarining raxbar va pedagok kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yanada takomillashtirilgan muxim ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.Jumladan , oliy ta'lim o'quv yurtlari o'qituvchilarining global internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovatsion pedagogic texnalogiyalarni egallashi va ularni o'quv jarayonida faol tatbik etishga oid chora-tadbirlar o'z ifodasini topgan .Bu esa, o'z navbatida , professor-o'qituvchilarning o'z ustida yanada ko'proq ishlashlariga , o'quv jarayoniga ilg'or uslublarni keng joriy etishga , kasb madaniyati va maxorati , ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishiga zarur shart-sharoitlar yaratadi.

XX asr insoniyat uchun yangi burilish davri bo'ldi.Yangi asr-axborot jamiyati asri.Mikyoslari bo'yicha bu burilish davrini agrar inkilobga va industriallashtirish davriga qiyoslash mumkin.Bugungi kunda ta'lim muommosini global muommolar qatoriga kiritish mumkin.Uning idealari, maksadi, mazmuni,metodlari, texnalogiyalari barqarorlik sifatlari bazan keskin o'zgarishlargayuz tutmoqda.Jamiyatni axborotlashtirish muommosi ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnalogiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Ta'limni axborotlashtirishning asosiy maqsadi axborot va telekommunikatsiya texnalogiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash orqali intellectual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat.Ushbu muommoni xal etish uchun ta'limning innovatsion-didaktik shakllarini asoslash, texnalogiya va axborotlashtirish vositalarini bir

tizimda birlashtirishning pedagogik, metodik xamda texnologik asoslarini ishkab chiqish va amalda joriy etish lozim.Bizning nazarimizda, bunday tizim vazifasini axborot-ta'lim muxitini o'taydi.Demak,axborot-ta'lim muxitini yaratish ta'limni axborotlashtirishning obektiv natijasi xisoblanadi.

Ta'limni axborotlashtirish – bu o'quv jarayonining bugungi omilidir.Yangi axborot muxiti kasbiy ta'limning extiyojlariga to'la javob beradi.Bunday tushinish bizga kasbiy ta'limi o'qituvchilarining axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari xaqida so'z yuritishga asos beradi.

Zero, xozirgi vaqtda kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorligini oshirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Kasb ta'limi o'qituvchilarining zamonaviy axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirishning pedagogik tamoyillari quyidagilardan iborat:

-kasb ta'limi o'qituvchilarining zamonaviy axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish tizimi modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish;

-intellektual- axborotlashtirilgan ta'lim muxitini yaratish;

-kasb ta'limi o'qituvchilaring axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish jarayonining o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish;

-kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot madaniyatini yuksaltirish, xuxusan, ularda axborot texnalogiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Qayd etib o'tilgan pedagogik tamoyillarni aloxida-aloxida qarab chiqamiz.

1.Kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish tizimi modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish.

Kasb-xunar kollejlarida faoliyat ko'satayotgan va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish tizimi modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy

etish muxim muammo bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:ta'lim maqsadi va vazifalari, pedagogik amaliyotning asosiy yo'nalishlari, uslublari, o'qitish vositalari va natija.

2.Intellektual-axborotlashtirilgan ta'lim muxitini yaratish.

Zamonaviy didaktikada ta'lim berish bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan o'qitish va o'qish jarayonlaridan iborat ekani ta'kidlanadi.Ammo bu ta'rifda o'qitish jarayonida yuzaga keladigan ayrim xolatlar e'tiborga olinmagan.Shu bois tadqiqotchilar pedagogikaga "ta'lim muxiti", "axborot muxiti" tushunchasini kiritishdi.Bigungi kunda ilmiy-uslubiy jurnallarda "axborot muxiti" atamasini ko'p uchratamiz. "Axborot muxiti" ga berilgan barcha ta'riflarni o'rganib va taxlil etib, biz uni quyidagicha ifodaladik.

Axborot muxiti  foydalanuvchilar tomonidan turli maqsadlarda qo'llaniladigan dasturli-apparatli vositalar, axborotli  aloqa tarmoqlari, ta'lim muassasasining tashkiliy-uslubiy elementlari va predmet soxalari haqidagi amaliy axborotlar majmuasini ifodalaydi. Tadqiqotlar  natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim yo'nalishlarida intellektual-  axborotlashtirilgan ta'lim muxitini yaratish pedagog va talabaning axborot bilan ishlash faoliyati samaradorligini ta'minlashga xamda kompyuter vositasida o'qitishda zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan foydalanishga imkon yaratadi.

3.Kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish bo'yicha tayyorgarligini oshirish jarayonining o'quv –uslubiy ta'minoti.

Ta'lim muassasalarida o'quv ishlarini tashkil etishda axborot va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanib, o'qituvchi va ta'lim oluvchining tezkor muloqotini tashkil etish muhimdir. Ko'pgina oliy o'quv yurtlari ma'muriyati moddiy-texnik  bazani yaratishni asosiy vazifa deb hisoblaydi. Xolbuki,  bo'lajak kasb  ta'limi o'qituvchilarining  axborot texnalogiyalaridan foydalanishga tayyorlashning asosi ularning mustaqil kognitiv faoliyati xisoblanadi. Shu bois, uning uslubiy ta'minotini yaratish muxim masala sanaladi.

Bizningcha, ta'limni axborotlashtirish bir necha yo'nalishda olib borilishi lozim.Ulardan biri dasturiy ta'minotlardan foydalanish xisoblanadi.Unga "Windows " operatsion tizimida xujjatlarni taxrirlashga mo'ljallangan matnni tayyorlash tizimi, bir xildagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish imkonini beruvchi universal dasturlar;katakchalarida faqat sonlar emas, balki matnlar joylashadigan, xisob-kitob ishlari avtomatik ravishda bajariladigan, electron blanka ko'rinishidagi MS EXSEL jadvalining turli versiyalari; matnli va grafik ko'rinishdagi ma'lumotlarni qog'ozli tashuvchilardan kompyuter xotirasiga o'tkazishga imkon beruvchi skanerlar;grafik ko'rinishdagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun raqamli fatografiya va dasturiy ta'minotlar;local kompyuter tarmog'I va global internet tarmog'idan foydalanish hamda turli xil brauzerlar (masalan MS Internet Explorer) orqali Internet tarmog'ida joylashgan ma'lumotlarni o'qish va boshqalar kiradi.

Kasb ta'limining aniq yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini va avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimni yaratish, kasb ta'limini kompyuterlashning ikkinchi yo'nalishi xisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnalogiyalari qog'ozli tashuvchilardagi xar qanday ko'rinishdagi ma'lumotlarni kompyuter ma'lumotlar bazasiga, elektron adabiyotlar va o'rgatuvchi dasturlarga o'tkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, axborot texnalogiyalaridan kasbiy ta'limga oid ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashda xam foydalaniladi.

Ma'lum formula va algoritmlar bo'yicha xisob-kitob ishlarini bajarish uchun zamonaviy dasturlash tillaridan biri asosida dasturiy majmua yoki aloxida dastur yaratish kasbiy ta'limni kompyuterlashning uchinchi yo'nalishi hisoblanadi.

4.Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnalogiyalarini qo'llash .

So'rov natijalariga ko'ra, umumkasbiy fanlar bo'yicha dars berayotgan o'qituvchilarning 80% dan ortig'i kompyuterdan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakaga ega.Ularning ko'plari kompyuterda ishlashni mustaqil o'rgangan,

ayrimlari maxsus kurslarda o'qishgan.O'qituvchilarning aksariyati oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Informatika va axborot texnalogiyasi" predmeti bo'yicha tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlarda kompyuterdan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakaga ega bo'lganini e'tirof etishdi.Ammo bu ko'nikma va malakalarning o'zigina etarli emas. O'qituvchilardan axborot texnalogiyalari bo'yicha maxoratini muntazam oshirish talab etiladi.

Pedagogik amaliyotning ko'rsatishicha, axborot texnalogiyalaridan kasb ta'limida samarali foydalanish uchun, eng avvalo, dasturiy ta'minotlar zarur.Dasturiy ta'minot deyilganda kompyuterda turli amallarni bajarishni ta'minlovchi dasturlar majmuasi tushuniladi.

Dasturiy ta'minotlardan foydalanish maqsadiga ko'ra bir necha turga ajratiladi:tizim ishini qo'llab – quvvatlashga mo'ljallangan ishchi dasturiy ta'minot (masalan, Windows operatsion tizimi);

Foydalanuvchiga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi dasturiy ta'minot (masalan, matn muharriri, jadval prosessori, grafik muxarrir va boshqalar).

Amaliy dasturiy ta'minot quyidagi dasturlardan tashkil topadi:umumiy mazmundagi amaliy dasturlar va tor sohadagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan maxsus dasturlar.Xozirgi kunda o'quv jarayonida foydalanishga mo'ljallangan kompyuter dasturlarining turli sinflari mavjud.Ammo xozircha ular tasniflanmagan va tizimlashtirilmagan.

Biz quyida o'quv jarayonida qo'llanilayotgan o'rgatuvchi dasturlarning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

-individual ishlash uchun yoki mashq qilish uchun mo'ljallangan dasturlar;

-matnni modifikatsiyalash(tushurib qoldirilgan belgilarni qo'yish, jumlalarni qayta guruxlash, matnni taxrirlash va boshqalar) ga imkon beruvchi individual va jamoa bo'lib ishlash uchun mo'ljallangan matnli dasturlar;

-muommoli vaziyatlarni o'z ichiga olgan o'yinli dasturlar;

-turli test sinovlarini amalga oshirishga imkon beruvchi dasturlar;

-ma'lumotlar bazasi asosida yaratilgan dasturlar;

Bugungi kunda o'qitish jarayonida Internet xalqaro tarmog'idan keng foydalanilmoqda.Uning imkoniyatlari istikbolda yanada ortadi.Bizning nazarimizda,kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot texnalogiyalari bo'yicha tayyorgarligini oshirish uchun ularda axborot texnalogiyasini o'rganish va undan kasbiy faoliyatda foydalanish bo'yicha subektiv pozitsia, eng muximi, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun pedagogik faoliyatda tatqiqotchilikning rolini kuchaytirish lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda axborotlashtirilgan ta'lim muxitini joriy etish muxim axamiyatga ega.U bir necha komponentdan tashkil topgan.

a)Avtomatlashtirilgan ma'lumotnoma.U o'qituvchilarni zaruriy o'quv ma'lumotlari (o'rganilayotgan predmetga oid va boshqa ma'lumotlar) bilan ta'minlaydi.Avtomatlashtirilgan ma'lumootnoma o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

-o'quv jarayonini takomillashtirish va axborotlashtirish bo'yicha metodik muammolar banki;

-ishbilarmonlik xarakteridagi didaktik o'yinlar va muommoli o'qitish usullari banki;

-o'quv guruxlari bo'yicha ma'lumotlar (gurux ro'yxati, o'zlashtirish natijalari va boshqalar) banki;

-o'quv –dasturiy xujjatlar banki(o'quv rejalar,o'quv –uslubiy ishlar, o'quv yuklamalar).

b)Elektron ma'ruza matni.U quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:kompyuter xotirasiga turli o'quv axborotlari(kurs mazmuni, individual topshiriqlar, masalalar, test topshiriqlari va boshqalar ) ni kiritish; tarqatma materiallar va uyga beriladigan topshiriqlar nusxalarini ko'paytirish , ularni muayyan algaritm va qoida bo'yicha tizimlashtirish, kompyuter ekraniga yoki qog'ozga chiqarish ; o'quv axborotlarini tasniflash va kengaytirish, individual topshiriqlar tayyorlash .

v)Predmet bo'yicha bilimlar banki. Ushbu component ta'lim masalalari va muommolari, qo'yilgan masala va muommolar echimini topishga imkon beruvchi axborotli modular, o'rganilayotgan masalalar va muommolarga oid didaktik o'yinlar, topshiriq va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

r)Pedagogik dasturiy vositalar majmui:avtomatlashtirilgan o'quv kurslari ; turli toifadagi o'rgatuvchi dasturlar; o'quv ma'lumotlari bazasi va boshqalar.Bundan kelib chiqadiki , "Informatika va axborot texnalogiyalari"fanidan ta'lim oluvchilarga nafaqat nazariy bilim beriladi, shuningdek ular yangi amaliy ko'nikmalarga o'rgatiladi va kasbiy faoliyatga tayyorlanadi.Chunki bugungi kunda kasbiy faoliyat xaqidagi bilim va kasbiy ko'nikmalar mutaxassislar amaliy faoliyatida muxim axamiyat kasb etmoqda.

Ushbu dolzarb masalani xal etish uchun esa ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim – tarbiyaning zamonaviy texnalogiyalarini ishlab chiqish, xuxusan, pedagogic innovatsiyalar vositasida bo'lajak mutaxassislarda zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha pedagogik izlanishlar olib boorish zarur.

Ana shundan kelib chiqqan xolda kasb ta'limi jarayonida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash muommosini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganilishi zarur.Amaliyot ko'rsatadiki, axborot texnalogiyalaridan foydalanilganda ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga ko'tariladi.O'qitishning

yangi axborot texnalogiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini  ma’lum darajada optimallashtiradi.Uning axborot va metodik ta’minotini yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, axborot texnalogiyalari ta’lim jarayonini boshqarishda juda qo’l keladi.Shunday bo’lsada, eng asosiy maqsad ta’lim jarayonida yangi axborot texnalogiyalaridan foydalanish emas, balki ular vositasida ta’lim samaradorligini oshirish va aniq natijaga erishishdir.

Shu bois, o’qitishning yangi axborot texnalogiyalaridan foydalanish strategiyasi, usul va metodlarini belgilashga ularning boshqaruv sifati va tezkorligini oshirishga imkon beruvchi asosiy vosita ekanligi xisobga olinadi.Shubxasiz, ularni amalda qo’llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, ta’lim muassalari oldida turgan dolzarb masalalarni yechishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilari va pedagoglarning axborot texnalogiyalari bo’yicha tayyorgarligini oshirish tizimi modelini yaratish va uning samaradorligini oshirish uchun kasb ta’limi jarayonida axborot texnalogiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash muximdir.

Bo’lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligi kasb ta’limi o’qituvchilari tomonidano’quv-tarbiya jarayonida qo’llanilayotgan pedagogik texnalogiyalarga bog’liq.Shubxasiz, bu xol kasb ta’limi o’qituvchilarining axborot texnalogiyalari bo’yicha tayyorgarligini oshirishning pedagogik tamoyillarini ta’minlashni talab etadi.

# II BOB. O‘QUVCHILARNING KASB-HUNAR TANLASHDA QIZIQISH,MOYILLIK VA QOBILIYATLARINI UYG‘UNLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

## 2.1§. O‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarining kasb-hunar tanlashdagi ahamiyati

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, bu sohaga e’tibor yanada kuchaydi. Yangi turdagi ta’lim, jumladan, maktabdagi mehnat ta’limi va uning negizida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirib, kollejlarda o‘qishni davom ettirishga tayyorlash uchun kasb-hunar ta’limi muassasalari tashkil etilishi jadallashtirilmoqda. Ularni o‘z ishining ustasi bo‘lgan, erkin fikrlaydigan barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatimizning ustuvor vazifalari sirasiga kiritilmoqda, zero aynan shunday yoshlar davlatimizning buyuk kelajagini bunyod eta oladi.

O‘quvchilarni maktab atrofidagi muhitga qarab biror-bir kasbni tanlashlarida kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etilishiga tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Buning uchun maktablarda quyidagi ishlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- o‘quvchilarning yakka xususiyatlari, qiziqish, qobiliyat va moyilliklari o‘rganilishi;
- kasb tanlashni jamiyatning bugungi ehtiyojlari, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘lab o‘quvchilarga tegishli tushunchalar berish;
- kasb-hunarni egallash uchun o‘quvchilar tanlagan kasbiga binoan o‘rta maxsus o‘quv muassasalariga borib o‘rganishlari.

Yuqorida nazarda tutilgan ishlarni amalga oshirishda o‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyillik nima, ular insonda qanday paydo bo‘ladi? Ularning soni va darajasi qanday aniqlanadi? kabi savollar va ularning javoblari katta o‘rin tutadi.

Shu o‘rinda olimlarning bu boradagi ishlari bilan qiziqib ko‘raylik. Qiziqish, moyillik va qobiliyat kasb-hunar tanlashda birlamchi sifatlar hisoblanadi. Bunday sifatlar asosida tegishli kasbga qiziqishlarni aniqlaydigan xatti-harakatlarning ilmiy

nomi **profdiagnostika** deyiladi. Ushbu atama grek tilidan olingan bo‘lib, uning aynan tarjimasi «*professio*» - o‘z mashg‘ulotim hamda «*diagnostikos*» - aniqlamoq, payqamoq yoki fahmlamoq degan manolarni beradi. Profdiagnostikaning asosiy maqsadi – insonning qiziqish, qobiliyat va moyilliklariga mos bo‘lgan kasbni aniqlashdir.

**Qiziqishlar**. Qiziqish deganda odamning u yoki bu predmetga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan olganda qiziqishlar bu odamning muayyan mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uning bilishga va faoliyat ko‘rsatishga bo‘lgan intilishidir.

Qiziqishlar o‘zining mazmuni, ko‘lami, uzoq davom etishi va teranligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko‘lami odamning bilim darajasini hamda har narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Qiziqishlarning teranligi va uzoq vaqt davom etishi ularning barqarorligini ko‘rsatadi.

Qiziqishlar o‘z taraqqiyoti mobaynida bir necha bosqichdan o‘tadi. Dastlab, ular vaqtincha, epizodik xarakterda bo‘ladi hamda muayyan bir predmetga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo‘ladi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada susayib ketadi yoki mutlaqo so‘nadi. U yoki bu predmetning chuqur va muntazam ravishda o‘rganib borilishiga, mehnat faoliyatining qiziqarli sohasiga sinchkovlik bilan kirishib ketilishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va asta-sekin barqaror qiziqishga aylanib qolishi mumkin. Bunday qiziqishlar ko‘pincha o‘sib, ulg‘aya borib, **maylga –** kishining muayan faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib, doimiy ravishda o‘z bilimini oshirib borish uchun intilishiga aylanadi.

Agar qiziqishlar “bilishni istayman” degan formula bilan ifodalanadigan bo‘lsa, mayllar “bajarishni istayman” degan formula bilan ifodalanadi. Hayvonlar to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qishga bo‘lgan qiziqish hayvonot bog‘iga borib turishni yaxshi ko‘rish, “hayvonot olamida” deb ataladigan televizion ko‘rsatuvning

birortasini qo‘ymay ko‘rib borish boshqa-yu, haqiqiy jonivorlarni har kuni parvarish qilish natijasida hosil qilinadigan bir olam quvonch boshqadir.




**Qiziqishlarning rivojlanish bosqichlari**

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi.

**Qiziqish** – insonlarning dunyoqarashi, etiqodlari, ideallari, yani uning oliy maqsadlari, orzu-niyatlari, orzu-umidlari bilan bevosita muhim rol o‘ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini taminlash uchun xizmat qiladi. Qiziqishlarning klassifikatsiyasi va ularning mazmuni quyidagi jadvallarda ifodalanadi:




Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o‘zlashtirishda, o‘quvchi qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi. Shu o‘rinda qiziqishlarning tarkibiy qismlar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish joiz:




**Qobiliyat** insonning shunday psixologik xususiyatiki, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o‘zi bu bilim va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Malaka, ko‘nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo‘ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo‘lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi hisoblanadi. Bolada namoyon bo‘ladigan musiqaga qobiliyat uning musiqachi bo‘lishi uchun imkoniyatlar, maxsus talim berilishi, qatiylik, salomatligining yaxshi bo‘lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko‘pgina sharoitlar bo‘lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq so‘nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan faoliyatlardagina namoyon bo‘ladi. O‘quvchida ham zaruriy ko‘nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo‘qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib

ko‘rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo‘q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo‘ladi.

Qobiliyat bilim va malakalarning o‘zida ko‘rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo‘ladi yani, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo‘ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo‘lishi bilan aql sifatlari xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo‘yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig‘indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar tasiri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo‘ladi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko‘nikma va malakalari ko‘p qirrali va mukammallashgan bo‘ladi. Shuning bilan birga ko‘nikma va malalakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to‘ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko‘nikmalarning umumlashmasi mohirlik deb ataladi. Mohirlik bu qobiliyatning o‘zginasidir. Demak, qobiliyat ko‘nikma va malakalarning paydo bo‘lish jarayonida shakllanadi.

Multimedia vositalariga quyidagilar kiradi: ma’lumotlarni audio (nutqli) va videokiritish va yuqori sifatli tovushli (sound) va video (video) platalar, videoqamrash platalari (video grabber), ular videomagnitafondan yoki videokameradan tasvirni oladi va uni SHKga kiritadi; yuqori sifatli kuchaytirgichli, tovush kolonkali, katta videoekranli akustik va videokabul kiladigan tizimlar, hozirdayoq keng tarqalgan skanerlar (chunki ular kompyuterga bosma matnlarni va rasmlarni avtomatik kiritish imkonini beradi); yuqori sifatli printerlar va plotterlar.

Multimedia vositalariga yuqori ishonch bilan ko‘pincha tovushli va videoma’lumotlarni yozish uchun ishlatiladigan optik va raqamli videodisklardagi katta sig‘imli tashqi eslab qolish qurilmalarini ham kiritish mumkin.

Multimedia proyektor STX EzPro 500 – bu qurilma Germaniyada ishlab chiqarilgan bo‘lib, kompyuter, videomagnitafon, video – ko‘zning axborotlarini ekranga chiqarish imkoniyatiga ega. Proyektor ixchamligi, o‘rnatish osonligi foydalanuvchiga katta qulaylik yaratadi. Multimedia proyektorining tashqi tuzilishi 1 – rasmda ko‘rsatilgan.



2 – rasm. Multimedia proyektor STX EzPro 500 ning umumiy ko‘rinishi.

Proyektorning ustki qismida boshqarish tugmalari joylashgan bo‘lib, ular paneldagi 4-ta tugma ko‘rsatakichlardan iborat (2-rasm):

Video ko‘z - bu qurilma aslida videokamera o‘rnini bosib, uni bevosita televizorga ulab kerakli narsalarni (kompyuterlashtirilgan mini plakatlar, didaktik materiallar, slaydlar va boshqalar) o‘quvchilarga kursatish mumkin. Yoshka usuli esa, multimedia proyektorga ulangan holda yoyma ekranga tasvir uzatiladi. Bu qurilmaning tashqi ko‘rinishi quyidagi 5-rasmda keltirilgan.




3 – rasm. Video – ko‘z

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatmalarni inobatga olib, multimedia proyektor, videomagnitofon, video ko‘z va kompo‘oterlarni kompleks ravishda ishlatishni ko‘rib chiqamiz.



..4..-rasm.

6-rasmda ko‘rsatilgan kompleks kompyuterdagi malumotlarni ko‘rsatib bo‘lgandan so‘ng, multimedia proyektor menyusidaga "SOURCE" bo‘limidan foydalanilsa, quyidagi oyna paydo bo‘ladi.

**Birinchi usuli. Multimedia** proyektor, videomagnitofon va kompyuter birgalikda ish ishlatilishi lozim. (8-rasm).



.5. – rasm

Ta’lim vositalari - o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi har kanday axborot tashuvchi vositalardir.

Ta’lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:

- ta’lim beruvchi uchun;
- ta’lim oluvchi uchun;
- dars o‘tkazish uchun.

Quyidagi chizmada (3.16-rasm) ta’lim vositalarini tanlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

Ta’lim beruvchi uchun vositalar: o‘kuv-metodik qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o‘quv dasturlari, dars rejasi, ma’ruza matni.

Ta’lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o‘quv qo‘llanma, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va hokazolar.

Dars o‘tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar, real vositalar.

Ba’zi hollarda ta’lim oluvchi uchun mo‘ljallangan ta’lim vositasi ta’lim beruvchi uchun ham, dars o‘tkazish uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to‘ldirishi kerak. Bundan tashqari ta’lim vositalarining xususiyatlariga ko‘ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar. Quyidagi chizmada (3.17-rasm) ta’lim vositalarining turlari keltirilgan.

Ta’lim vositalari olti turga bo‘linadi:

- matnli vositalar;

- tasvirli vositalar;
- audiovizual vositalar;
- yordamchi (jihoz) vositalar;
- modelli vositalar;
- haqiqiy vositalar.

TA’LIM VOSITALARI TURLARI




**5-rasm. Ta’lim vositalarining turlari**

**Matnli**

Ma’lumot olish va ma’lumotlarni qayta ishlash uchun

- o‘quv dasturlari
- maxsus adabiyot (darslik)
- ma’ruza matnlari
- tarqatma materiallar
- imtihon va nazorat varaqalari

**Tasvirli**

Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun

- fotosuratlar
- eskiz, chizma, sxemalar
- tasvirlar, jadvallar, simvollar
- plakatlar

**AUDIOVIZUAL**

Jarayonlar va ishlash mexanizmlari to‘g‘risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga kyoltirish uchun

- videofilmlar
- kompakt disklar
- audiokassetalar
- Rower Point materiallari
- elektron darsliklar

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro bog‘langan faoliyati yangicha tarzda shakllanadi. Insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli holat kashf etib, o‘quvchiga bilimga chanqoqlik, ehtiyoj, Vatanga mehr - muhabbat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga e’tiqod kabi xislatlarni tarbiyalab beradi.

Jumladan, o‘qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo‘lsada, aynan o‘xshash ma’noni anglatmaydi. Chunki u ma’lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o‘quv materialining o‘zlashtirish yo‘lini muayyan texnologiya asosida ifoda etadi. Boshqacha izohlaganda xususiy metodika bilan bir jinslidir.

Hozirgi kunda o‘qituvchilar ko‘p hollarda metodikani pedagogik texnologiyasidan ajrata olmayotganligi sababli ma’lum noaniqliklar paydo bo‘lmoqda. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo‘ldi.

## III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL QILISH VA UNING TAHLILI

### 3.1§. Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish.

Kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirish borasidagi tajriba-sinov ishlarini quyidagi bosqichlarda tashkil etildi: asoslovchi, shakllantiruvchi va ta’kidlovchi tajribalar. Ularning har biri aniq vazifalarning hal etilishiga yo‘naltirildi. Xususan:

1. Tajriba-sinov ishlarining tashkiliy bosqichi. Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichi bo‘lgan ushbu bosqichda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini hisobga olgan holda kasb-hunarga yo‘naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning umumiy mazmunini aks ettiruvchi harakat dasturi va ishchi reja ishlab chikildi, amaliy faoliyat olib boriluvchi umumiy davr va bosqichlar belgilandi, ularda bajarilishi zarur bo‘lgan aniq vazifalar, ularning bajarilish muddati belgilandi. Tajriba-sinov ishlari uchun obyektlar tanlandi, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning shaxsi va faoliyati mohiyati, pedagogik tajribalari borasidagi ma’lumotlarni to‘plash, ular bilan muloqotlar tashkil etish asosida tajriba ishlarini olib boruvchi mas’ul o‘qituvchilar belgilandi, ularga hamkorlikda yo‘lga qo‘yiluvchi faoliyat mohiyati, mazkur jarayonning umumiy mohiyati, qo‘lga kiritilishi kutilayotgan natijalar xususida ma’lumotlar berildi. Respondent o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarning soni aniqlandi, amaliy faoliyat jalb etilgan o‘quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga biriktirildilar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda respondent o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyatlari bevosita va bilvosita o‘rganildi, ular o‘rtasida dastlabki anketa va ijtimoiy so‘rovlar tashkil etildi, natijalar umumlashtirildi, ular asosida xulosalar chiqarildi. Xulosalarga tayangan holda faoliyat dasturi va ishchi rejada belgilangan vazifalarning mohiyati yanada aniqlashtirildi. Kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi ishlanmalar tayyorlandi.

2. Tajriba-sinov ishlarining bevosita tashkil etish bosqichi. Ushbu bosqichda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishga

qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishgaimkon beruvchi shart-sharoitlar yaratildi. Chunonchi, mavjud kasb yoki hunarlar mohiyatini yorituvchi ma’lumotlar bazasi, ularni o‘quvchilarga yetkazib beruvchi hamda o‘quvchilarga ma’lum kasbiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish borasidagi dastlabki ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi monitoring tashkil etildi.

3. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi. So‘nggi bosqichda amaliy faoliyat ko‘rsatkichlarini umumlashtirish, tahlil etish, asosiy natijalarni esa matematik-statistik metod yordamida qayta tahlil etish hamda umumiy xulosalarni chiqarish kabi harakatlar olib borildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borishga mas’ul bo‘lgan o‘qituvchilar ishtirokida kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini uyg‘unlashtirish borasidagi maxsus metodikaning samaradorlik darajasi xolis baholandi.

Bizga yaxshi ma’lumki, tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatini ta’minlashda ko‘zlangan maqsadga erishish va vazifalarni ijobiy hal etishga imkon beruvchi samarali shakl, metod va vositalarning tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shubois amaliy faoliyatni tashkil etish jarayonida qo‘llaniluvchi shakl, metod va vositalarni belgilab olish hamda bevosita tajriba orqali ularning samaradorligini aniqlashga ham e’tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonining mohiyati va yakuniy natijalarga asoslangan holda quyidagi shakl, metod va vositalar umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishdakutilgannatijalarga erishish imkonini berishi aniqlandi:

**Faoliyat shakllari:** suhbat, davra suhbati, uchrashuv, amaliy mashg‘ulotlar, amaliy trening, ekskursiya, konferensiya, seminar, tanlov, ma’ruza va hokazolar.

**Faoliyat metodlari:** pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, test hamda ijtimoiy so‘rovlarni tashkil qilish, hikoya qilish, ekskursiya, namoyish etish, ko‘rgazmalilik, amaliy mashg‘ulot.

**Faoliyat vositalari:** maxsus metodika, mashg‘ulotlar uchun ishlanmalar, ko‘rsatmali qurollar (sxema, tasvir, jadval, plakat va maketlar), o‘quv va texnik jihoz (nusxa ko‘paytirish qurilmalari, trenajyor)lar, transpont vositalarining nusxalari, ish o‘rinlari (ustaxona va laboratoriyalar), maxsus ish kiyimlari, axborot

texnologiyalari (kompyuter, radio, televizor, audio va video magnitafonlar) kabilar.

Tadqiqot hamda uning doirasida tajriba ishlarini olib borishda pedagogika amaliyotida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish borasida qo‘llanilib kelinayotgan bir necha metodlardan samarali foydalanishga urindik. Ana shunday metodlar sirasidan

“Tabaqalashtirilgan (differensial) tashxis so‘rovnomasi (TS)” hamda “Men afzal ko‘raman” nomli tashxis so‘rovnoma va **Ayzenk** testi va **E.A.Klimov** kasb tiplarini aniqlash metodikasi o‘rin oldi. Ayni o‘rinda mazkur metodlarning mohiyati xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Mazkur metodika asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat shartli ravishda ikki bosqichga bo‘linadi: 1) o‘quvchi shaxsini o‘rganish; 2) o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda kasb yoki hunar yo‘nalishini tanlashda ular faoliyatiga rahbarlik qilish.

Birinchi bosqichda kasb-hunar yo‘nalishini tanlashda muhim sanaluvchi o‘quvchi shaxsiga xos bo‘lgan xususiyatlar va ularning faoliyatlari mazmuni o‘rganiladi.

Birinchi bosqichda, o‘quvchilar tomonidan muayyan kasb-hunar yo‘nalishlarini tanlash jarayonida ko‘zga tashlanuvchi muammolarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Zero, ularning ma’lum bir kasbga qiziqishi yoki qiziqishi bo‘lgan kasbga qobiliyatiyo‘qligi, kasb yoki hunar asoslari borasida ma’lumot beruvchi o‘quv yurtlarini bilmasliklari, fanlardan bo‘sh o‘zlashtirishlari, olayotgan mo‘ljallarining noaniqigi, “o‘z kuchini sinab ko‘rish” imkoniyatining mavjud emasligi, shaxsiy xususiyatlarning ma’lum kasbiy faoliyatni tashkil etish borasidagi talablarga javob bera olmasligi, shuningdek, o‘g‘il yoki qizining kelgusi kasbiy faoliyati borasidagi qiziqishi hamda rejalariga nisbatan ota-onalarning befarqliklarini o‘z vaqtida aniqlash o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va ularni kasb-hunarga yo‘naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tabaqalashtirilgan (differensial) tashxis so‘rovnomasi (TS) ham o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodlardan biri hisoblanadi. O‘quvchilar o‘zlarga tavsiya etilgan TS mazmuni bilan tanishib, javoblar varaqasida qayd etilgan variantlar bo‘yicha savollarga javob beradilar. Ushbu jarayonda o‘quvchilarga javob varaqasining kataklaridagi raqamlar hamda harf belgilarining bir-biriga mos kelishiga e’tibor berish maqsadga muvofiqligi tushuntiriladi. Muayyan savol yuzasidan ijobiy javob berish ma’qul topilgan vaziyatlarda belgilangan katakka “+” belgisi qo‘yiladi. Javob berilayotganda birorta savol javobsiz qoldirmasligi, har bir savol bo‘yicha taklif etilayotgan “a” yoki “b” imkoniyatlaridan biri tanlanib, musbat belgisi qo‘yilishi zarur.

Javoblarni tahlil etish metodikasi: o‘quvchilar tik ustunda musbat belgisi qayd etilgan javoblar sonini aniqlab, hosil bo‘lgan miqdorni varaqaning pastki kataklariga joylashtiradilar.

Savollar E.A.Klimov tomonidan tavsiflangan mutaxassislik tiplari bo‘yicha quyidagicha guruhlangan: 1) inson-tabiat (T); 2) inson-texnika (TX); 3) inson-inson (I); 4) inson-belgilar tizimi(sistemasi) (BT (S)); 5) inson-badiiy timsol (BT). Respondent-o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini quyidagi jadval asosida tahlil etishlari mumkin:

| T | TX | I | BT(S) | BT |
|---|---|---|---|---|

Muayyan ustunda musbat belgilarining ko‘pligi o‘quvchilarda u yoki bu faoliyat sohasiga bo‘lgan qiziqish va moyilliklar darajasi ustuvor ekanligini anglatadi.

Mazkur paragrafda bayon etilgan fikrlardan anglanadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish borasidagi tadqiqot faoliyatining maxsus dastur va metodika asosida tashkil etilishi ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Metodikaning texnologik yondoshuv asosida loyihalanishi bu boradagi faoliyatning belgilangan muddatda ijobiy yakunlanishiga imkon yaratadi. Maxsus metodikaning mavjudligi, shuningdek, tajriba-sinov

ishlarining tizimli, izchil, uzluksiz va maqsadga muvofiq tashkil etilishini ham ta’minlaydi.

Biroq nazariy jihatdan asoslangan metodikaning amaliyotga qay darajada mos tushishini ham e’tiborga olish zarur. Kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi metodikaning pedagogik amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘lganligi xususida dissertatsiya ishining navbatdagi paragrafida so‘z yuritamiz.

## 3.2§. Tajriba-sinov ishlarining natijalari

Tajriba ishining muhim bosqichi sanalgan so‘ngi bosqichda kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlash-tirish yuzasidan ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida amaliy faoliyatni tashkil etish yakunlari hamda ushbu metodikaning samaradorligi o‘rganildi.

Ana shu maqsadda respondent-o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda ota-onalar o‘rtasida ikkinchi tur so‘rovlarini tashkil etdik. Quyida ushbu so‘rov yakunlari xususida so‘z yuritamiz.

Tajriba-sinov ishlarining yakunida tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan mezonlar asosida o‘quvchilar tomonidan kasb-hunar yo‘nalishlari-ning nazariy va amaliy asoslarining puxta o‘zlashtirilishi mohiyatiga ko‘ra yuqori, o‘rta va past darajada namoyon bo‘lishiga tayangan holda guruhlarga ajratib olindi. Har bir guruhning mohiyati quyidagi mazmunni ifodalashi belgilandi:

**Eng yuqori daraja** – kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat ekanligini his etadilar va unga bor kuchi bilan intiladilar, jamiyatda mavjud bo‘lgan kasb-hunarlarning turlari, ularning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo‘yicha ma’lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma’lumotini beruvchi ta’lim muassasalari, ularda ta’lim olish shartlari, ma’lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo‘yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma’lumotlarni **yuqori darajada** o‘zlashtirganlar, ma’lum kasb yoki hunar yo‘nalishi bo‘yicha dastlabki ko‘nikma va malakalarga egalar, bo‘lajak kasbiy faoliyat yuzasidan **aniq maqsadnio‘z oldilariga qo‘ya olganlar** hamda unga erishish yo‘lida amaliy harakatlarni olib boradilar.

**Yuqori daraja** - kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat ekanligini xis etadilar va unga erishishga xarakat qiladilar, jamiyatda mavjud bo‘lgan kasb-hunarlarning turlari, ularning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo‘yicha ma’lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma’lumotini beruvchi ta’lim muassasalari, ularda ta’lim

olish shartlari, ma’lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo‘yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma’lumotlarni **yetarli darajada** o‘zlashtirganlar, ma’lum kasb yoki hunar yo‘nalishi bo‘yicha dastlabki ko‘nikma va malakalarga egalar, biroq, bo‘lajak kasbiy faoliyat yuzasidan **aniq qarorga kela olmaganlar** va kasbiy maslahat hamda psixo-pedagogik yordam ko‘rsatilishiga nisbatan ehtiyoj sezadilar.

**O‘rta daraja** - kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hayotiy zaruriyat ekanligini his etadilar va unga erishishni o‘ylaydilar, jamiyatda mavjud bo‘lgan kasb-hunarlarning turlari, ularning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, mutaxassisliklar bo‘yicha ma’lumot olish jarayoni (mutaxassislik ma’lumotini beruvchi ta’lim muassasalari, ularda ta’lim olish shartlari, ma’lumot olish bosqichlari), ishga joylashish tartibi, kasbiy tayyorgarlikka nisbatan qo‘yiluvchi talablar xususidagi nazariy ma’lumotlarni **ma’lum darajada o‘zlashtirganlar**, u yoki bu kasb (hunar) bo‘yicha kasbiy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha aniq ko‘nikma va malakalarga ega emaslar, bo‘lajak kasbiy faoliyatni tanlashga nisbatan mas’uliyatni his eta olmaydilar, shu bois jiddiy ravishda kasbiy maslahat va psixo-pedagogik yordamga muhtojdirlar.

Qiziqishi, qobiliyati va moyilliklari uyg‘unlashgan va uyg‘unlashmaganliklarini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishimizda jami 51 nafar o‘quvchi qatnashdi. (3.2.1-jadval)

**O‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va moyilliklari uyg‘unlashganligi darajasi**

**(3.2.1-jadval)**

| **Ta’lim muassasasi nomi** | **O‘quvchilar soni** | **Uyg‘unganlik darajasi** | **Uyg‘unlashganlik darajasiga ko‘ra o‘quvchilar soni va foizi** |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6-maktab | 17 | Uyg‘unlashgan | 9 (53%) |
| | | Uyg‘unlashmagan | 8 (47%) |
| 36-maktab | 16 | Uyg‘unlashgan | 8 (50%) |
| | | Uyg‘unlashmagan | 8 (50%) |
| 38-maktab | 18 | Uyg‘unlashgan | 9 (50%) |
| | | Uyg‘unlashmagan | 9 (50%) |

Yuqorida keltirib o‘tilgan jadvaldan fodalanib, o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va moyilliklarining uyg‘unlashganligi aniqlandi hamda shu asosda tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Qiziqishi, qobiliyati va moyilliklari o‘zaro mos kelgan o‘quvchilarni ya’ni, qiziqishi, qobiliyati va moyilliklari uyg‘unlashganlarini tajriba guruhiga ajratib oldik, o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va moyilliklari bir-biriga mos kelmagan ya’ni, uyg‘unlashmaganliklarini nazorat guruhi deb nomladik. Natijada bizning endilikdagi tajribalarimizga jami 51 nafar ya’ni, tajriba guruhida 26 nafar va nazorat guruhida esa 25 nafar respondent-o‘quvchi qatnashdi.

Respondent-o‘quvchilarning kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlashda kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari darajasi mezonlarga tayanildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida ular tomonidan qayd etilgan ko‘rsatkichlarning ushbu mezonlarga muvofiq kelishi tahlil etilganda quyidagi natijalar qo‘lga kiritildi:

**O‘quvchilar tomonidan kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarining o‘zlashtirilish darajasi (tajriba va nazorat guruhlarida) tajriba avvalida.**

**(3.2.2-jadval)**

| Tajriba bosqichi | U mu mt | O‘quvchilar soni | Daraja | Tajriba | Nazorat |
|---|---|---|---|---|---|

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| va o'quv yili | | Taj guruhi | Naz guruhi | (o'zlashtirish) | guruhi | guruhi |
| 2018-2019o'quv yillari | 1 | 9 | 8 | Eng yuqori (a'lo) | 2(22.2 %) | 1(12,5 %) |
| | | | | Yuqori (yaxshi) | 2(22.2 %) | 2(25%) |
| | | | | O'rta (qoniqarli) | 5(54.6 %) | 5(62,5 %) |
| | 36 | 8 | 8 | Eng yuqori (a'lo) | 2(25%) | 1(12.5 %) |
| | | | | Yuqori (yaxshi) | 2(25%) | 2(25%) |
| | | | | O'rta (qoniqarli) | 4(50%) | 5(50%) |
| | 38 | 9 | 9 | Eng yuqori (a'lo) | 2(22.2 %) | 2(22.2 %) |
| | | | | Yuqori (yaxshi) | 3(33.3 %) | 3(33.3 %) |
| | | | | O'rta (qoniqarli) | 4(44.5 %) | 5(54.6 %) |

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni samarali amalga oshirish maqsadida, avvalo, ularning qiziqish, moyillik va qobilyatlarini aniqlash, ularning bir-biriga mos kelishini, uyg'unligini o'rganish, ular uyg'unligi ta'minlangan kasblar bo'yicha kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining o'zlashtirish darajasi aniqlandi. Olingan ko'rsatgichlar ijobiy natija berdi. U quyidagi jadvalda o'z aksini topgan. Tajriba guruhidagi o'quvchilar, asosan, qiziqish, moyillik va qobilyatlari o'zaro mos keladigan ma'lum ma'noda uyg'unlashgan o'quvchilardan tuzilgan.

**O'quvchilar tomonidan kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilish darajasi (tajriba va nazorat guruhlarida) tajriba oxirida.**

**3.2.3- jadval**

| Tajriba bosqichi va o'quv yili | TMN | O'quvchilar soni | | Daraja (o'zlashtirish) | Tajriba guruhi | Nazorat guruhi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Taj guruhi | Naz guruhi | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2018-2019o‘quv yillari | 6-maktab | 9 | 8 | Eng yuqori (a’lo) | 3 (33.3%) | 2 (25%) |
| | | | | Yuqori (yaxshi) | 3(33.3%) | 1(12,5%) |
| | | | | O‘rta (qoniqarli) | 4 (44.5%) | 5 (62,5%) |
| | 36-maktab | 8 | 8 | Eng yuqori (a’lo) | 3 (37.5%) | 2 (12.5%) |
| | | | | Yuqori (yaxshi) | 3 (37.5%) | 2(25%) |
| | | | | O‘rta (qoniqarli) | 2 (25%) | 4 (50%) |
| | 38-maktab | 9 | 9 | Eng yuqori (a’lo) | 3 (33.3%) | 2(22.2%) |
| | | | | Yuqori (yaxshi) | 4 (44.5%) | 3 (33.3%) |
| | | | | O‘rta (qoniqarli) | 2 (22.2%) | 5 (54.6%) |

Yuqorida keltirilgan jadvallar hamda ularda muayyan kasb yoki hunar asoslari borasidagi nazariy bilimlarning o‘zlashtirilganlik, shuningdek, ma’lum kasbiy faoliyatni tashkil etish yuzasidan amaliy ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlar asosida yakuniy natijalarni ifoda etishga xizmat qiluvchi quyidagi jadvalni hosil qildik: Quyidagi jadvalda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilim darajasi dinamikasining o‘zgarishi (son va % hisobida) keltirilgan.

**O‘quvchilar tomonidan kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning o‘zlashtirish darajasi ko‘rsatgichlari**

**3.2.4-jadval**

| Tajriba bosqichi va o‘quv yili | TMN | O‘zlashtirish darajasi | Tajriba guruhlarida | | Nazorat guruhlarida | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Tajriba boshida | Tajriba oxirida | Tajriba boshida | Tajriba oxirida |
| | 6-maktab | Eng yuqori (a’lo) | 3(3.3%) | 4 (44.5%) | 1(12,5 %) | 2 (25%) |
| | | Yuqori (yaxshi) | 2(22.2%) | 4 (44.5%) | 2 (25%) | 1 (12,5%) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2018-2019o‘quv yillari | | O‘rta (qoniqarli) | 4(44.5%) | 4 (44.5%) | 5(62,5 %) | 5(62,5%) |
| | 36-maktab | Eng yuqori (a’lo) | 2(25%) | 3(37.5%) | 1(12.5 %) | 2(12.5%) |
| | | Yuqori (yaxshi) | 3(37.5%) | 3(37.5%) | 2(25%) | 2(25%) |
| | | O‘rta (qoniqarli) | 3(37.5%) | 2(25%) | 5(50%) | 4(50%) |
| | 38- maktab | Eng yuqori (a’lo) | 2(22.2%) | 4(33.3%) | 2(22.2 %) | 2(22.2%) |
| | | Yuqori (yaxshi) | 3(33.3%) | 3(33.3%) | 3(33.3 %) | 3(33.3%) |
| | | O‘rta (qoniqarli) | 4(44.5%) | 2(22.2%) | 5(54.6 %) | 5(54.6%) |

Demak, ushbu jadvallarga asosan tajriba guruhida qo‘llanilgan metodika nazorat guruhiga nisbatan samarali ekanligi aniqlandi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish qobiliyat va moyilliklarining uyg‘unlashgandagi nazariy va amaliy bilimlarning o‘zlashtirilganligi tajriba guruhlarida 1,12 barobar va nazorat guruhlarida 1,09 barobar samaradorlikka, erishilganligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotlardan olingan natijalar asosida kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish qobiliyat va moyilliklarining uyg‘unlashgandagi nazariy va amaliy bilimlari o‘zlashtirilganligining qiyosiy tahlili quyidagi gistogrammada beriladi (1-2 rasmlar).

**1–rasm. Tajriba va sinov guruhlarining tajribadan oldingi natijalari gistogrammasi**




**2 –rasm. Tajriba va sinov guruhlarining tajribadan keyingi natijalari gistogrammasi**




Gistogrammalardan ko‘rinib turibdiki, kasb-hunar tanlashda o‘quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini uyg‘unlashtirishni qo‘llagan holda ta’lim olish shakllari, metodlari va vositalaridan unumli foydalangan holda yuqori baho olgan tajriba guruhi o‘quvchilarida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik ko‘rsatgichlari natijalariga ko‘ra 30 % dan 70% ga, nazorat guruhlarida 24% dan 30% ga oshgan.

# UMUMIY XULOSALAR

1. Ma’lumki, o‘quvchilar kasb tanlashga oid bilimlarning asosiy hajmini umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-9 sinflarida mehnat ta’limi jarayonida egallaydilar. Tadqiqotda bu jarayonning muhimligini ta’kidlovchi ikki omil tahlil qilib berildi, birinchidan, kasb tanlashga yo‘llash ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganda o‘quvchilar o‘z qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlaridan kelib chiqib kelajagi (kasb tanlashlari)ni to‘g‘ri belgilab olishini ta’minlaydi; ikkinchidan, jamiyatimizning har bir jabhasida o‘z kasbini mahorat darajasida egallagan, mustaqil va ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi.

2. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashda o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari mazmun-mohiyati tahlili asosida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish maqsad va vazifalari, o‘quvchi kasbiy sifatlarini dastlabki pedagogik-psixologik tashxis qilish, kasblar to‘g‘risida axborot berish, o‘quvchi shaxsini ijtimoiy-kasbiy yo‘naltirish, kasbiy maslahatlar, kasbiy-iqtisodiy tarbiya metodlarini qo‘llash yo‘llari ko‘rsatib berildi. Shu bilan birga dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishning turli yo‘nalishdagi mashg‘ulot shakllaridan foydalanishga oid tavsiyalar berildi.

3. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tuzilmasi ishlab chiqildi. Tuzilmaning ikki asosiy tashkil etuvchisi: mehnat ta’limi darslari jarayoni va darsdan tashqari mashg‘ulot turlarining bir-birini rivojlantirishini ta’minlash uchun ularning har bir bo‘g‘inining o‘zaro bog‘liqlik asoslari ishlab chiqildi.

4. Kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli ravishda izchil tako-millashtirib borilgandagina o‘quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo‘lishiga erishiladi. Bu maqsadda ishlab chiqilgan «Yosh texnik» va «Yosh duradgor» to‘garaklarining ish rejalari o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim muassasasidagi darsdan tashqari davrini qamrab olgan holda, umumta’lim fanlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirilishi, nazariy va amaliy bilimlarining ta’lim standartlari darajasiga to‘la javob bera oladigan bitiruvchilar tayyorlash imkonini beradi.

5. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijasida o‘quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida kasb-hunarga yo‘llashning tavsiya etilayotgan pedagogik texnologiyasini ta’lim muassasalari amaliyotiga joriy etish yo‘li bilan o‘rganildi. Ishlab chiqilgan ta’lim mazmuni va metodlari bevosita o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlari jarayonida sinab ko‘rildi. Tajriba-sinov ishlari yakunida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasining ishlanganlik darajasi tahlil qilindi.

6. Tadqiqot natijalari va xulosalari asosida quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- zamonaviy talablar va fan-texnika taraqqiyotidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning o‘z kasbini ongli ravishda to‘g‘ri belgilash va shu asosda tegishli bilimlarni puxta egallashlariga erishish;

- dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida yoshlarni kasb-hunarga ongli va asosli ravishda yo‘naltirishning samarali tizimini yaratish.

- dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va har tomonlama barkamol etib tarbiyalanishiga salbiy ta’sir etuvchi zararli illatlardan saqlash.

- yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda «Kamolat», «Mahalla», «Ulug‘bek», «Oltin meros», «Iste’dod» kabi jamg‘armalar bilan izchil hamkorlikni ta’min etishga erishish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining Milliy axborot – kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari tog’risida’’gi 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi normativlari.

3. O‘zbekiston respublikasida o‘quvchi-yoshlarni kasb-xunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi. T-2011 y

4. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi O‘rta maxsus kasb-hunar Tasniflagichi. -T.: 2011.

5. Umumta’lim maktablari mehnat ta’limi fani Davlat ta’lim standarti. – T-2011y

6. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1999 y. – 248 b. 14-15 betlar.

7. I.A.Karimov Barkamol avlod –O’zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent : “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1998 y

8. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: Sharq. 1997. - 63 b.Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T.: O‘zbekiston. 1995. -23 b.

9. Andrianov P.N. Maktab o‘quvchilarning texnik ijodkorligini. rivojlantirish g‘g‘ O‘quvchilarning texnik ijodkorligi. Tuzuvchi Andrianov P.N. - T.:O‘qituvchi. 1989-128 b.

10. Azizxodjaeva H.H Pedagogicheskoe tenalogii I Pedagogicheskoe Masterstvo.Ucheb posobie dlya Magistrature vsex spetsalnostey .-T TDPU .2003-193 c

11. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o‘rgatishning milliy-an’anaviy asoslari (metodik tavsiyanoma). - T.: R.M. 1999. - 20 b.

12. Bespalko.V.P.Pedagogika I prograssivie texnalogii obuchenie .Institut prof.obraz. –M.:2005. –336c

13. Vorobyov A.I. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi. - T.: O'qituvchi. 1980. - 208 b.26.

14. Davlatov K.D., Chichkov V.A. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash. - T.: O'qituvchi. 1978. - 144 b.

15. Karimov I.I. Mehnat ta'limi darslarinining samaradorligini oshirish. - Quqon.: 1995 – 39 bet.

16. Magzumov P.T. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O'qituvchi. 1991. – 206 b.

17. Mehnat ta'limi metodikasi (D.A.Txorjevskiy taqriri ostida). T.: O'qituvchi. 1987.- 80b.

18. Sayidaxmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. T.: Yangi asr avlodi.2001.- 40 b.

19. Saidaxmedov N.S.Pedagogik amalitoyda yangi pedagogik tehnalogiyalarni qo'llash namunalari.-T.:PTM, 2000 – 46b

20. O'quvchilarning qiziqish va moyilliklari diagnostikasi metodik tavsiyanomalar. –T.: RO'MM. 2001y.

21. Xolmatov P. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish.uslubiy qo'lanma.Dis .T- 2003.23-b.

22. Xalq maqollar to'plami. -T.:Xalq merosi.1994. -25 b

23. Sharipov SH.S., Isyanov R.G., Ergashov M., SHodmanova Sh.S Ustoz – shogird faoliyati texnalogiyasi. Metodik qo'llanma .-Toshkent: TDPU, 2011y.

24.

**Internet ma'lumotlari:**
**http://www.pedagog.uz**
**http://www.ziyonet.uz**
**http://www.istedod.uz**

**ILOVALAR**

**1-ilova**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING VIII-IX SINF O‘QUVCHILARI UCHUN ANKETA SO‘ROVNOMASI**

Sharifi________________Ismi ______________________Yoshi____

Maktab № ___________ Sinf_____________Sana _____________

Hurmatli o‘quvchi! Quyida Sizning e’tiboringizga kasb yoki hunar yo‘nalishlari bo‘yicha qiziqishingizni aniqlashga xizmat qiluvchi savollar havola etiladi. Savolda javob variantlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, ma’qul deb topgan javobingizning tagiga chizing. Agarda javob variantlari berilmagan bo‘lsa, javobingizni to‘la yozing.

1. Sizni qaysi fan sohasi ko‘proq qiziqtiradi:

a) tabiiy fanlar (matematika, fizika, kimyo, biologiya, mehnat (bu o‘rinda qishloq xo‘jaligi mehnati);

b) ijtimoiy fanlar (tarix, huquqiy va iqtisodiy bilimlar asoslari);

v) gumanitar (adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, til o‘rganishga oid fanlar (xususan, ona tili, ingliz tili)).

2. Siz qaysi fanlarni o‘rganishni yoqtirasiz? ___________________

3. Qaysi fanlarni o‘rganishni yoqtirmaysiz? ___________________

4. Quyidagi fanlar bo‘yicha qanday baholarni olasiz: ona tili____, matematika (algebra)___, tarix ___, fizika ___, kimyo ____, biologiya (botanika) ____, adabiyot ___, geometriya ___, chet tili____, mehnat ta’limi ___, jismoniy tarbiya ____, geografiya ____, huquq ___, Odam va uning salomatligi ____ , Vatan tuyg‘usi ____, Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari ____ , iqtisodiyot asoslari ____, rus tili ___, musiqa ____, chizmachilik ___ va boshqalar.

5. Bo‘sh vaqtda qanday mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanasiz? _______

6. Qanday jamoatchilik vazifalarini bajarasiz? ___________________

7. Qanday to‘garak va sektsiyalarda qatnashasiz?

8. Repititorlik asosida qo‘shimcha ta’lim olasizmi?_

9. O‘zingizda qanday xislatlarning mavjud bo‘lishini xohlardingiz?_____

10. Sizda qanday emotsional sifatlar ustun? _

11. IX sinfni tugatgach, qanday yo‘nalishda ta’lim olishni xohlaysiz:

a) X sinfda o‘qishni davom ettirmoqchiman;

b) akademik litsey, kasb-hunar kollejida ta’lim olmoqchiman.

12. Bu borada ota-onangiz qanday fikrdalar?

13. Qaysi akademik litsey va kasb-hunar kollejida o‘qimoqchisiz? (nomini to‘la yozing)

14. Agar X sinfda o‘qishni davom ettirsangiz qaysi mehnat ta’limi yo‘nalishida bilim olmoqchisiz?

15. Ushbu yo‘nalishni nima maqsadda tanlayapsiz?

16. Yana qaysi kasbiy faoliyatlar sizni ko‘proq qiziqtiradi? (Ularning nomlarini yozing) ______________________________________________________

**2-ilova**

**QIZIQISHLAR XARITASI**

Ko‘rsatma: Hurmatli o‘quvchilar, Sizlardan quyidagi savollarga javob berish so‘raladi. Har bir savol yuzasidan ijobiy munosabatingizni «+» va salbiy munosabatingizni «-» tarzida ifodalashingizni so‘raymiz.

Quyidagi fan yoki mutaxassislik yo‘nalishlari e’tiboringizni jalb etadimi? Ularning asoslarini o‘rganishni xohlaysizmi?

1. Fizika va matematika darslari.

2. Ximiya darslari.

3. Ro‘zg‘orda qo‘llaniluvchi elektr va radiotexnika asboblari bilan tanishish.

4. Jahon mamlakatlari, ularning iqtisodiyoti va davlat tuzilmasi to‘g‘risidagi adabiyotlarni o‘qish.

5. Fan va texnika yutuqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishish (chunonchi, «Texnika molodyoji», «Yuno‘y texnik» oynomalar va boshqalarni o‘qish asosida).

6. Jahon klassik adabiyotlari bilan tanishish.

7. O‘simlik va hayvonot dunyosi borasidagi ma’lumotlar bilan tanishish.

8. Pedagog (tarbiyachi)lar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishish.

9. Tarix darslari.

10. Tibbiyot sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan tanishish.

11. O‘zingiz o‘qiydigan, istiqomat qiladigan, ishlaydigan bino (xona)ning chiroyli ko‘rinishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.

12. Teatr, muzey va badiiy ko‘rgazmalarga borish.

13. Harbiy texnika borasidagi adabiyotlarni o‘qish.

14. Fizika yoki matematika sohasidagi kashfiyotlar xususidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan tanishish.

15. Kimyo sohasida erishilgan yutuqlar bilan tanishish (ommaviy axborot vositalari orqali).

16. Radiotexnika sohasida erishilgan yutuqlar to‘g‘risidagi ilmiy-ommabop maqolalar bilan tanishib borish.

17. Foydali qazilmalar va yangi konlarni ochilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishish.

18. Zamonaviy texnika sohasida erishilgan yutuqlar bilan tanishish (ommaviy axborot vositalari orqali, tenika ko‘rgazmalariga borish asosida).

19. Adabiy va tanqidiy maqolalarni o‘qish.

20. Biologiya va botanikani o‘rganish.

21. Qiyin masalalarni yechish, gapni to‘g‘ri yozish va hokazolarni tengdoshlariga tushuntirish.

22. Hozirgi kun voqealarini muhokama qilish.

23. Anatomiyani o‘rganish.

24. Kartoteka tuzish va yuritish.

25. Opera va simfonik musiqani tinglash.

26. Harbiy texnika bilan tanishish.

27. Fizikaga doir tajribalarni o‘tkazish.

28. Kimyoga doir tajribalarni o‘tkazish, Kimyoviy reaksiyalar jarayonini kuzatish.

29. Ro‘zg‘ordagi elektr va radio asboblarini tuzatish.

30. Minerallar kolleksiyalarini to‘plash.

31. Turli mexanizmlar (velosiped, tikuv mashinasi, soat va boshqalar)ni yig‘ish va tuzatish.

32. Hikoya va she’rlar yozishni mashq qilish.

33. O‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish, ularning o‘sishi va rivojlanishini kuzatish.

34. Vaqtni kichik bolalar bilan o‘tkazish (ularga kitoblar o‘qib, hikoyalar so‘zlab berish, biror sohada yordamlashish).

35. Maktabda ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish.

36. Shikastlangan joyni bog‘lash, jarohatlangan holatlarda birinchi yordamni ko‘rsatish.

37. Ekskursiya va sayohatlar vaqtida ovqatlanishni tashkil etish.

38. Deklomatsiya qilish, xorda qo‘shiq aytish va saxnaga chiqish.

39. Harbiy o‘yinlar va yurishlarda qatnashish.

40. Matematika yoki fizika to‘garaklarida shug‘ullanish.

41. Kimyoviy eritmalarni tayyorlash hamda reaktivlarni to‘g‘ri saqlashga urinish.

42. Radioapparat hamda elektr asboblarini konstruksiyalash.

43. Geografik va geologik ekspeditsiyalarda qatnashish.

44. Samolyot va planer modellarini yasash.

45. Chet tillarni o‘rganish.

46. Jonli tabiatni kuzatish va o‘z kuzatishlarini muntazam ravishda

yozib borish.

47. Bolalar yetakchisi vazifasini bajarish.

48. Sinfda xalqaro ahvol to‘g‘risida axborot bilan so‘zga chiqish.

49. Bemorlarni kuzatib borish va ularga yordam ko‘rsatish.

50. Xaridorga o‘ziga mos kiyimni do‘kondan xarid qilishga yordam berish.

52. Musiqa asboblarini chalish, tasviriy asarlarni yaratish yoki yog‘ochga naqsh ishlash.

53. Sportning otish to‘garagida shug‘ullanish.

54. Fizika yoki matematika olimpiadalarida qatnashish.

55. Kimyodan murakkab masalalarni echish.

56. Aniq o‘lchov asboblaridan foydalanish va o‘lchashga oid hisob-kitoblarni amalga oshirish.

57. Geologik va geografik xaritalarni tuzish.

58. Texnik chizma va sxemalar mohiyatini anglash.

59. So‘z va iboralarning kelib chiqishini o‘rganish.

60. Qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishga doir tajriba ishlarini olib borish.

61. Ma’ruzalarni tayyorlash, so‘zga chiqish.

62. Turli mamlakatlarning siyosiy tuzumi va ijtimoiy hayotini o‘rganish.

63. Odam organizmi funksiyalari hamda kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o‘rganish.

64. Odamlarga turli maishiy xizmatlar ko‘rsatish.

65. San’atning rivojlanish tarixini o‘rganish.

66. Yirik janglar hamda atoqli sarkardalar hayoti va faoliyatini o‘rganish.

67. Matematik qoida va formulalar mohiyatini bilishni talab etuvchi faoliyatni tashkil etish.

68. Kimyoviy mohiyatga ega masalalarni yechish.

69. Murakkab radio sxemalarning mohiyatini o‘rganish.

70. Uzoq muddatli va murakkab ishlarni amalga oshirish.

71. Murakkab chizmalarni bajarish va loyihalar yaratish.

72. Lug‘at, adabiy manba va bibliografik ma’lumotnomalar bilan ishlash.

73. O‘simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish, qishloq xo‘jalik mashinalari va asboblariga qarashni talab qiladigan topshiriqlarni bajarish.

74. Bolalarni o‘rganish va tarbiyalash.

75. Maktabda kecha hamda konsertlar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.

76. Yaqin kishilarning sihat-salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.

77. Jamoatchilik bilan doimiy muloqotda bo‘lish.

78. Musiqa, tasviriy san’at va teatr asarlari bilan tanishish hamda zavqlanish.

79. Kun tartibiga qat’iy rioya qilish, belgilangan tartib asosida yashash.